




Melinda Naj Abonji

Kabutarlar baland uchadi

16+



Melinda Naj Abonji

Kabutarlar baland uchadi


431111

Najel. r/k

Nemis tilidan
Mirzaali Akbarov
tarjimasi

Shveysariyalik taniqli adiba Melinda Naj Abonji qalamiga mansub ushbu asar bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lgan muhojirlik va migratsiya mavzulariga bag'ishlangan. Asar Tyurix Adliya va ichki ishlar departamenti, Shveysariyaning Pro Helvetia va Germaniyaning Robert Bosh jamg'armalari grantlari bilan taqdirlangan va jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilingan.

Unda vengriyalik bir oilaning musofir yurtda chekkan mashaqqatlari qalamga olingan. Oila a'zolari Shveysariyaga ko'chib borib, u yerda yangi hayot boshlash yo'lida katta qiyinchiliklarni boshidan kechiradilar, hayot qozonida qaynab, toblanadilar. Vatanidan olisda yashab, yurt qadrining nechog'li ekanini his etib, har qadamda Vatan sog'inchi bilan umr kechirgan bu oila a'zolari qiyinchiliklarni mardonavor yengib, xalqiga, yurtiga, ona tiliga, urf-odat va an'alariga sodiq qolganlari muallif tomonidan mahorat bilan ochib beriladi va shu boisdan ham mazkur qissa katta qiziqish va hayajon bilan o'qiladi.



I BOB

TITONING YOZI

Shokolad rangli „Shevrole“ markali avtomobilimiz bilan, nihoyat, shaharchaga kirib borganimizda quyosh ayovsiz qizdirar, tush payti bo‘lganidanmi, uylar va daraxtlarning soyalarini ham go‘yo yutib yubor-gandek edi. Biz oxirgi yoz faslidan beri, umuman, o‘tgan yillar ichida qanday o‘zgarishlar bo‘lganini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rish uchun bo‘ynimizni cho‘zib, tevarak-atrofga razm solib kelardik.

Shahar boshlanayotganidan darak beruvchi ser-viqor teraklar saf tortgan ko‘cha va xiyobonlar bo‘ylab o‘tib borarkanmiz, osmonga bo‘y cho‘zgan bu daraxt-larga qarab, boshim aylanib ketganini hech kimga bildirmadim (shu damda xayolimda go‘yo Matteo ik-kovimiz qishloq chekkasidagi o‘rmonning ochiq ya-langlik joyida, oxiri ko‘rinmas doira bo‘ylab gir ayla-nayotgandek edik).

Shokolad tusli „kema“miz azim teraklar yonidan yelib o‘tib borar, quyosh ayamay yondirayotganidan havo dim, qilt etgan epkin yo‘q edi. Otam atrofga alanglab, past ovozda „Hammasi o‘shanday turibdi, hech nima o‘zgarmabdi, hech nima“, – dedi. Beixti-yor ko‘nglimdan, otam mabodo yovvoyilashib ketgan daraxtlarning shoxlarini butab-qirqib yoki bo‘lmasam, teraklarni tamomila kesib tashlaydigan bog‘bonlarni xohlamasmikan, degan o‘y o‘tdi (ana o‘shanda biz to‘nka, kundalardan birining ustiga o‘tirib olgan, otam



esa: „Mana, nihoyat, bu yaramas, chang bosgan daraxtlardan qutulibmiz-da“, degan bo‘larmidi).

Bu daraxtlarning men uchun qanchalik muhim ekanligini o‘zimdanda boshqa hech kim bilmasdi. Menga qolsa, hozir shu yerda to‘xtab o‘tgan, daraxtlardan birining tanasiga suyanib, yaproqlarning ohista tebranishiga mahliyo bo‘lgan bo‘lardim, lekin otamga buni aytolmasdim, chunki „nega?“ degan savolga javob topolmas, manzilga yetay deganimizda nima uchun aynan shu yerda to‘xtamoqchi ekanligimni tushuntirishimga, shuningdek, Matteo haqida ham gapirib o‘tish uchun juda ko‘p narsalarni aytib berishimga to‘g‘ri kelardi.

Mashinamiz, go‘yo pinhoni kuch tortib borayotganday, ko‘chaning o‘nqir-cho‘nqirlariga ham parvo qilmasdan, bir tekisda yelib borardi. Manzilga yetib bormasimizdan oldin „hech narsa o‘zgarmagani“ga guvoh bo‘lishimizga to‘g‘ri keldi. Bu yerlar odamda shunday taassurot qoldirardiki, go‘yo tamaddun taqdir zarbasiga duch kelgan-u, abadiy turg‘unlik hukm surardi. Biz bolalar yuzlarimizni mashina oynasiga tiragan ko‘yi ko‘zlarimizga ishonmasdik. Odamlar tog‘-tog‘ bo‘lib uyulib yotgan axlatxonalar orasida, qat-qat buklama temir tunikalar va yupqa taxtalardan tiklangan omonat uychalarda yashashardi, sochlari to‘zg‘igan bolalar esa turli xil chiqindilar hamda avtoulavlarning siniq parchalari uyum-uyum bo‘lib yotgan xarobalar ichida o‘ynab yurishardi. Agar mana shu siniq parchalarga tunda jon kirib, qimirlab qolishsa, nima bo‘larkin? Shu lahzada teraklarni, Matteoni ham unutdim, tevarak-atrofga hademay tun o‘z chodirini yopadi, qayerdandir eshitaladigan lo‘lilar-



ning qo‘shiq-lari qulog‘imga kirmas, ko‘zlarimga faqat qop-qora ko‘lankalar ko‘rinardi, xolos.

Otam oynadan tashqariga qaragan ko‘yi so‘kina-di, quruq yo‘tali tutib, boshini sarak-sarak qiladi, yon tomondagi oynani ko‘rsatkich barmog‘i bilan chertib, bizga qaranglar, deydi. Tog‘-tog‘ bo‘lib yotgan axlat-lar uyumi uzra har xil latta-puttalar ko‘zga tashlana-di, odamlarning hatto ko‘rpa-to‘shagi ham yo‘q, ka-ravotlar haqida-ku, gapirma-sa ham bo‘ladi. Ehtimol, shu bois ular kechasi yerga, qop-qora tekislikka qa-pishib olishadi. Hozir yoz, kungaboqarlar qiyg‘os gul-lab yotibdi, qishda esa odamlarning holi ne kechadi, Xudo biladi.

Biroq men bunday tekisliklarni yaxshi ko‘rardim, buni hali hech kimga aytmaganman. O‘zing yolg‘iz, tanho, qo‘llaringni yozib, bag‘ringni yerga berib, tekislik uzra cho‘zilib yotib olsang bormi, u seni hi-moya qiladi, bu esa uning in‘omidir.

Agar Matteoni (sitsiliyalik bu yigitcha yozgi ta’til boshlanishidan bir necha hafta oldin sinfimizga to‘satdan kirib kelgan va o‘zini ciao, sono Matteo de Rossa¹ deya tanishtirgach, muallimdan boshqa bar-chaga birday yoqib qolgan edi) sevaman desam, meni ko‘pchilik balki tushungan bo‘lardi. Ammo buni, shu tekislikni, chang bosgan, loqayd, mag‘rur teraklar-ni va ular orasidagi havoni yaxshi ko‘raman, deb qanday aytaman? Bu yerlarda yozda qayoqqa qara-mang, kungaboqarlar qiyg‘os gullab, makkajo‘xo-rizorlar, bug‘doyzorlar yastanib yotadi, odamlar bepoyon dalalar bag‘riga singib ketishadi, agar hushyor

¹ *Ciao, sono Matteo de Rossa* – Salom, mening ismim Matteo de Roza (*ital.*). Barcha izohlar tarjimonniki – M. A.



bo‘lmasang, tekislik yeb qo‘yadi deyishadi, ochig‘i, bunaqa gaplarga ishonmayman, men bu tekislikning o‘z qonun-qoidasi bor dengiz ekaniga ishonaman.

Eh, bechoralar-ey, deydi onam, xuddi televizor ko‘rayotganday, biz esa, juda ko‘p pulga sotib olgan mashinamizda go‘yo butun boshli ko‘cha o‘zimiz-gagina tegishlidek, yo‘lda davom etdik. Otam radio murvatini buraydi va xuddi voqelikning maymoqligini davolamoqchi bo‘lganday, qo‘shiq yangraydi: *u yon borma, kel bu yoqqa, kelaqol, bo‘sa bergil menga, jonim...*

Temir yo‘l izidan o‘tishimiz bilan allazamonlardan beri bir tomonga qiyshayib, zang bosib yotgan lavhaga ko‘zimiz tushdi, unda shaharchaning nomi zikr etilgan. „Mana, yetib ham keldik“, deydi singlim Nomi, qabriston tomonga ishora qilarkan. U yerda adolatsizlik hukm surayotgani ko‘zga yaqqol tashlanib turardi. Qarovsiz, tashlandiq qabrlar atrofini begona o‘tlar bosib ketgan, yog‘och xochlarni tanib bo‘lmas, lavhachalardagi yozuv, raqamlarni o‘qishning iloj-imkoni yo‘q edi. „Ha, yetib keldik“, deydi Nomi, ko‘zlarida esa qandaydir qo‘rquv zuhur edi, ehtimol, qabrlarni ziyorat qilishdan oldingi hadixavotir edi bu, chunki bu yerda ota tomonidan bobomiz, ona tarafidan buvimiz, katta amaki va xolalarimiz mangu uyquga ketishgan. Bunaqa paytlarda, odatda, ob-havo ham yaxshi bo‘lmaydi, toshtaxtalar yotqizilgan qabrlar uzra gladiolus va nafis atirgullar barqurib o‘sib yotar, marhumlar ismi-sharifi qabrtoshlarga o‘yib yozilgan, ularni kelasi avlodlar o‘qiy oladi, lekin mana shu toshtaxtalarni negadir jinim suymaydi,



chunki ular tekislik tuprog'ini bosib, uning ostidagi ruhlarning uchib ketishiga to'sqinlik qilar edi.

Eng yomoni, toshtaxtalar ostida yotgan qarindosh-urug'larimizga gullar – sariq va qizil atirgullar, karnaygullar yetishmasdi, „Biroq marhumlarni hech kim, hatto Allerheiligen² kuni ham hech kim yo'qlamasayam, – deydi onam siniq ohangda, – baribir qabrlar huvillab qolmaydi“. Ushbu so'zlar zamirida turmushning chuqur va achchiq qayg'usi, vatanidan olisda ekanligi bois o'z yaqinlarining qabrlarini loqal bir yilda bir marta, hech bo'lmasa, Allerheiligen kuni ziyorat qilib, poyiga gullar qo'yishga imkoni yo'q insonning qalb nidosi mujassam edi. Voyvodinada³ qarindoshlarimizdan kimdir vafot etguday bo'lsa, Mansi xola bilan Moris amaki bizga darrov qo'ng'iroq qilishardi, so'ng Mamikaning⁴ yuraklarini titratib yuboradigan ovozini eshitgach, uyimizga g'alati sukunat cho'mardi, mash'um xabardan keyin xuddi sharpalarga o'xshab qolardik. Hamon esimda, 1979-yilning oktabri edi, kunlarning birida otamizning sevimli katta xolasi bandalikni bajo keltirgani haqida xabar keldi, shunda otam onam uyga opkelib qo'ygan sariq gulli xrizantemalarni kutilmaganida axlat chelakka uloqtirarkan, endi marhumaga gullar kerakmas, dedi. O'shandan buyon men va singlim Nomi xrizantemalarni mamnu gullar deb ataymiz, chunki endi ularni ortiq stol ustiga ham, vafot etgan qarindoshlarimizning qabrlari poyiga ham qo'ya olmas edik.

² *Allerheiligen* – katoliklar tomonidan 1-noyabrda nishonlanadigan, aziz-avliyolarga bag'ishlangan diniy bayram.

³ *Voyvodina* – Vengriyaning janubida joylashgan viloyat. Bugungi kunda Serbiyaga qaraydi.

⁴ *Mamika* – vengerchada „buvijon“ degani.



„Shevrole“ mashinamiz nihoyat, Hajduk Stankova degan joyga yetib borib to‘xtadi.

– Mana, yetib keldik, – dedim men. Otam motorini o‘chirarkan, qisqa signal chaldi va mashina bo‘yi taxminan ikki metr, eni esa uch metrcha keladigan taxta darvozadan ichkariga kirib borib, yengil tin oldi. Bu – Mamika, ya‘ni otamizning onasi – buvijonimizning uyi edi.

– Sizlarni Xudoning o‘zi yetkazdi, – dedi buvijon har birimiz bilan alohida ko‘risharkan, uning o‘zigagina xos bo‘lgan mayin ovozda. Va ichkariga kirishimiz bilan stolga turli xil ichimliklar bilan birga shishachada aroq ham keltirib qo‘ydi.

Men esa uy ichini, undagi narsalarni, hovlini ko‘zdan kechira boshladim. Chamamda, tovuqxonadan tortib to bog‘ga qadar, hamma-hammasi xuddi ilgarigidek, bolalik chog‘larimda qanday bo‘lsa, shunday, deyarli o‘zgarmagan edi. Xo‘sh, Yuli-chi, Yuli? Hamma narsaga ishonuvchan va hamma narsani tez unutib yuboradigan, ko‘zlari doim kulib turadigan, sochlari to‘zib yuradigan qiz ham shu yerdamikin? Tentakkina qizning: „Menga nima opkeldingiz?“ – deb so‘raydigan odati bo‘lardi.

– He, Nomi va Ildiko, – deydi Yuli bizga qarab, – men sizlarning singlingizman, ha, ha, men bilaman, u juda go‘zal qiz. – Yuli shunday deb, qiqir-qiqir kuladi va bizga ko‘ylagining katta-katta gullarini ko‘rsatar-kan, yana shunday deydi:


– Bular mening ko‘zlarim, ha, ha...

Traubisoda! Yurtimizning sirli va sehrli ichimliklaridan biri ana shunday deb nomlanadi. Buvijonimiz aynan Nomi ikkovimizga atab, ana shu ichim-



likdan ham keltirib qo‘ydi. Biz bu mazali ichimlikni nihoyatda xush ko‘rardik, ba‘zan uyga – Shveytsariyaga ham bir necha shisha olib borsakmikin, deya o‘ylab qo‘yardik, axir vatanimizning ushbu xushbo‘y ichimligini u yerdagi do‘st va dugonalarimizga ko‘rsatib, ko‘z-ko‘z qilsak yomon bo‘lmasdi, ammo negadir hanuzgacha shunday qilmagan edik.

Buvijonimiz bizlarni tovuq go‘shiti solib pishirilgan lazzatli taom va tuzlangan bodring hamda qizil piyoz aralashtirib tayyorlangan pomidor salati bilan siyladi. Mezbonga minnatdorchilik bildirish maqsadida ovqat yeyayotib ham o‘rnimizdan turib, buvijonning bo‘yniga osilgan ko‘yi o‘pib, quchib, rahmat aytamiz, buvijonimiz bunga monelik qilmaydi, qaytanga mening nabiralarim „ikki enli“ o‘sib, katta qiz bo‘lib qolishibdi, deya bizlarni erkalagan bo‘ladi. Ota-onamiz esa buvijonga Shveytsariyadagi turmushimiz haqida, tepasiga *kir yuvish, dazmol bosish* deb yozilgan oq-qora rangli peshlavha osilgan xususiy do‘konimizdagi ishlar haqida hikoya qilisharkan, otam bitta ko‘ylakni dazmollash qancha turishini tushuntirmoqchi bo‘lib, barmoqlari bilan havoga allaqanday raqamlarni „chizadi“, onam bo‘lsa, dazmol bosishning ham o‘ziga xos sir-asrorlari borligi, dazmolni mato bo‘ylab qanday yurgizish zarurligi, ko‘ylak yoki matoni unda hech qanday g‘ijim yoki buklangan joy qoldirmasdan, silliqlab dazmollash kerakligi haqida so‘ylaydi. Bir qulog‘im bilan ota-onam suhbatini tinglayotgan bo‘lsam, ikkinchi qulog‘im bilan Nomi so‘zlarini tinglayman. „Ichimlik olib borsak, dugonalarimiz nima deyishar-kin?“ deydi u. Masalan, Betti „yomon emas, tuzuk“, deydi, Klaudiya esa shishachaning u yoq-bu yog‘iga



qarab, hech nima demay, shunchaki yelka qisib qo‘ya qoladi. Nima bo‘lgandayam, biz Traubisoda ichimligini yaxshi ko‘ramiz va u barcha ichimliklardan, hatto „Coca-Cola“dan ham mashhurroq bo‘lib ketadigan kunni orziqib kutardik.

Nomi bizga ana shu ichimlikdan yana quyib uzatarkan, otam o‘z hikoyasini davom ettirdi, toza yuvilib, yaxshilab dazmollangan kiyimlarni katta-katta savatlarga joylab, egalariga o‘zimiz yetkazib berishimizni aytdi va gap orasida bu ish ko‘pincha kech-qurunlari bajarilishini ham qistirib o‘tdi.

– Kunlarning birida, – dedi u, – bir mijozimizga narsalarini eltib berayotgan paytimda, daydi itlarga talanishimga ham oz qolgan.

– Ishlaring og‘ir ekan, bolam, – dedi buvijonim, nondan kesib, otamga uzatarkan.

– Ammo topish-tutishimiz yomon emas, – deydi otam va oldidagi qadahni yana aroq bilan to‘ldira boshlaydi. – O‘zingizdan gapiring, onajon, haliyam mana shu arzimas nonni olish uchun tun yarmiga qadar navbatda turibsizmi, partizanlar qiroli, nihoyat, o‘ldi-ku, shunday emasmi? Yo endi nonni xohlagan paytda sotib olishingiz mumkinmi...?

Otam Moris amakim tayyorlagan qo‘lbola aroqni ketma-ket „liq“ etib yutarkan, Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi tafovutlar haqida gapira boshlaydi:

– Mana, bu yil o‘rtoq Iosip Broz Tito ham o‘ldi, endi mamlakat sobiq sotsialistik tuzumdagi xo‘jasizlikdan o‘ziga kelgunga qadar hali ko‘plab avlodlar kelib-ketishi aniq, – deydi u. Nomi bo‘lsa, buvijonimni hol-joniga qo‘ymay, tinmay „so‘roq“ qilish bilan ovora:



– Bu yil cho‘chqalaringiz qancha bolaladi, g‘oz, tovuqlaringizning soni nechtaga yetdi, bozor-o‘charingizni haliyam o‘sha Yuli qilib berayaptimi? – hokazo va hokazo. Onam unga e‘tiroz bildirib:

– Endi keldik-ku, qizim, hali bir necha kun vaqting bor, so‘rab-surishtirishga ulgurarsan, – deydi.

– Yo‘q, men hoziroq hamma narsani bilishni istayman, hoziroq hamma narsani aniq bilishni istayman, – deydi Nomi va yuzini buvijonimning yuziga bosib, yig‘lab yuborguday bo‘ladi. Onam nima gapligini anglolmay, bosh chayqaydi, otam esa „Uzoq yo‘l yurib charchadim, bunaqangi g‘idi-bidilarni eshitishga toqatim yo‘q“, deydi. Faqat buvijonimning ovozigina vazmin va sokin yangraydi:

– Xonadonimga xush kelibsizlar! Miklosh, bolaginam, diqqatimni bo‘laverma, biz hozir Nomi va Il-diko bilan birga biroz aylanib kelamiz, sen esa yotib damingni ol, xo‘pmi, bolajonim?

* * *

Buvijonim bizga hovlisini, cho‘chqalar, tovuqlar, g‘oz va o‘rdaklar hamda kaptarlardan iborat xo‘jaligini birma-bir ko‘rsatarkan, „Kaptarlarni nima uchun boqaman, bilasizlarmi?“ – deb so‘rab qoldi. O‘zining aytishicha, buvijonim kaptarlarni onamizni deb boqarkan, chunki onamiz kaptarsho‘rvani haddan ziyod yaxshi ko‘rar ekan.

Sayr-tomoshadan endi kelib turgan edik, otam chaqirib qoldi – mashina yukxonasidan chamadonlarni olishimiz kerak edi. Kun allaqachon qiyomdan og‘gan bo‘lishiga qaramasdan, jazirama issiqning tafti pasaymagandi.

– Voy, mashinang zo‘r-ku, Miklosh! – dedi bu-
vijonim hayratini yashirolmay, „shevrole“ga yaqin
kelib.

– Amerikada hozir hamma shunaqa mashina mi-
nadi, oyi, – dedi otam biroz g‘urur bilan. – Keling,
o‘zingiz bir o‘tirib ko‘ring.

Otam onasining qo‘lidan tutib, mashinaga ehtiyot-
korlik bilan o‘tkazgach, o‘zi rulga o‘tirib, uloviga ba-
tafsil ta‘rif bera boshladi. Buvijonim mashinaning old
oynasidan tashqariga qararkan, dam-badam jilmayib
qo‘yardi.

Nomi, onam va mening ko‘nglim hali bunaqa
tomoshalar ko‘p bo‘lishini oldindan sezib turardi,
chunki ertadan keyin Moris amakining o‘g‘li Nan-
dorning to‘yi, ularnikiga borishimiz kerak. Borsak,
to‘yxonadagi barcha erkaklar kelin-kuyov bu yoq-
da qolib, albatta, bizning „shevrole“ni o‘rtaga olib,
„muhokama“ qilishlari turgan gap. Otam motorni o‘t
oldiradi, yig‘ilganlar esa motor shovqiniga ham qa-
ramay, bir-biri bilan bahslasha boshlaydilar. Shunday
yoki shunga o‘xshash manzara bo‘lishi aniq.

Biz – onam, Nomi, men, xolalarimiz va ama-
kivachchalarimiz yomg‘irda qolgan tovuqday hur-
payib, bir chekkada tomoshabin bo‘lib turaveramiz.
Xorijiy ulov tevaragidagi qizg‘in bahs kutilmagan-
da tortishuv – janjalga aylanib ketishi ham hech gap
emas. Buning uchun birgina nojo‘ya so‘z yoki luq-
ma kifoya, alalxusus, kimdir sotsialistik tuzumning
„afzalliklari“ haqida og‘iz juftlashi bilan odamlar
„musht ketdi“ga tushishadi: ha, ha, kommunizm,
zo‘r g‘oya! Kapitalizm-chi? Insonning inson to-
monidan ezib ishlatilishi, xolos!.. Xullas, mavzu tex-



nikadan siyosatga ko'chdimi, hamma yoqni Xudo urdi deyavering.

Onam qo'llarini bizning yelkamizga qo'yib olgan, Nomi va men shu zayl antiqa tomoshaning tamom bo'lishini kutamiz. Qayerdadir, daraxtzorlar orasidan boyo'g'lining xunuk sayrashi eshitiladi. Chamadonlarimiz ustida o'tirgan ko'yi „shevrole“ tomonga ko'z tashlaymiz. Otam hamon mashina ichida kuymalana-di. Buvijonimizning boshidagi qop-qora ro'moli peshonasigacha sirg'alib tushgan, dam otamga, dam biz tarafga nazar tashlaydi. Nomi va men hamon chama-donlarimiz ustida o'tirardik. Bu g'alati manzara hali uzoq vaqt yodimizda saqlanib qolsa kerak.

Moris amaki va Mansi xolaning uylari atrofi Shkoda, Lada va boshqa turli xil markadagi mashinalar bilan to'lib ketganidan yon tomondagi kichkina ko'chaga burilishga majbur bo'ldik. Otam mashinaning motorini o'chirarkan, terlab-pishib ketganidan yuz-ko'zlari va peshonasini dastro'molchasi bilan tinmay artardi, chunki havo nihoyatda issiq edi. Kelin-kuyov – Nandor bilan Valeriyanning to'yi Tintoning o'limidan so'ng roppa-rosa uch oy o'tgach (04.08.1980) bo'lib o'tayotganini, onam bu shuncha-ki tasodif, derdi, otam esa buni munosib nishonlash kerak, deya to'yib ichish uchun bahona qidirardi. Buvijonim to'ygga juda katta tayyorgarlik ko'rilgani, hatto qurumsoqligi bilan nom chiqargan Mansi xola ham o'g'lining to'yi uchun bor bisotini xarjlab yuborgani, to'ygga ikki yuz ellik nafar mehmon taklif etilganini aytishi bilan onam, „Unday bo'lsa, uch yuz nafar odam kelishi aniq“, dedi. Shunda otam peshonasiga bir urib, „E Xudoyim, jiyanimning shunday



bir tarixiy sanada uylanayotgani nega endi oldinroq esimga kelmadi-ya?“ – deya o‘ziga o‘zi yozg‘irardi. „Bas qilsang-chi, – deydi onam uning gapini bo‘lib, bu axir shunchaki tasodif-ku!“. „Tasodif bo‘lsa bordir, ammo tasodif bo‘lgandayam ajoyib tasodif-da, – deydi otam, – nima bo‘lsa ham, kelin-kuyovning to‘ylari ana shunday tarixiy sanada bo‘layotgani bilan chin dildan tabriklab qo‘yishim kerak“. U shunday deya aroqni „liq“ etib yutib, qadahni stol ustiga qo‘yarkan, uni yana darrov qulqillatib to‘ldiradi. Qadahni qo‘liga olib, „Nima, shunday ajoyib voqea sharafiga men bilan urishtirib ichmaysizlarmi?“ – deya barchaga ta’na qilganidek bir-bir qarab qo‘yadi.

Nomi, onam va men unga nima deyishimizni bilmay, bir-birimizga unsiz tikilamiz, buvijonimiz esa past ovoz bilan: „Qurib ketgur kommunistlar uning hayotini zaharlagan, ha, zaharlagan, – dedi va Nomi bilan mening hayron bo‘lganimizni ko‘rib, so‘zida davom etdi, – hali katta bo‘lsalaring, otangiz sizlarga hammasini o‘zi aytib beradi“. „Katta bo‘lsak? Qachon katta bo‘lamiz o‘zi?“ Biz hech narsaga tushunolmay, battar hayron edik.

To‘yxona oldida bizlarni Yuli kutib oldi. „Nima, uni ham to‘yga taklif qilishganmi?“ – so‘raymiz buvijondan. „Ha, bo‘lmasam-chi, – deydi buvijon, – u har bir to‘y-tomoshada hozir-u nozir“. Yuli buvijonimga qo‘lida qizil chinnigul bilan peshvoz chiqadi. „Panni neni, panni neni⁵! Qarang, menga gul berishdi, qizil chinnigul!“ „O, Yuliginam, bugun ko‘rinishing zo‘r-ku!“ Buvijonim bu gapni chin dildanmi yoki shunchaki yo‘liga aytdimi, buni bilmasdik, chunki Yulining

⁵ Panni neni – Anna xonim (vengrcha).

ko‘rinishi, bizningcha, kulgili edi. Egnidagi bog‘ichli ko‘ylagi beo‘xshov osilib turar, chakkasiga qistirilgan qizil gul ham unga mutlaqo yarashmagandi. U ol-dimizga yugurib kelib, to‘xtovsiz bidirlay ketdi: „Qa-ranglar, qaranglar, xuddi kelinchakning o‘ziman-a, shundaymi... Endi bir nima yeb olmasam bo‘lmaydi, menga nima opkeldinglar?..“

Nandor va Valeriyaning to‘y marosimlari allaqa-chon boshlangan edi. Barchamiz bayramona libosda, onam buvijonimga atay odmi gulli qora ko‘ylak tan-lagan edi, chunki buvijonim bobomning o‘limidan ke-yin faqat qora yoki to‘q moviyrang libos kiyar, u ham bo‘lsa gulsiz, sidirg‘a bo‘lardi. Buvijon yangi ko‘ylak-ni asta qo‘liga olarkan, „Buni kiysam bo‘larmikin, nima deysizlar? – deb so‘radi va qo‘shib qo‘ydi, – nima qilardinglar, menga shuncha pul sarflab?“ „Sizga juda yarashadi, buvijon, guli ham oddiygina“, – dedi Nomi barchamizning fikrimizni ifodalaganday bo‘lib.

To‘yxonada bizlarga Mansi xola bilan Moris ama-ki hamda kelin-kuyovlar peshvoz chiqib, quchoq ochib ko‘rishishdi, „to‘yimizga shuncha uzoqdan yetib kelibsizlar, bundan nihoyatda xursandmiz“, de-yishdi. Darrov dasturxonga taklif qilishdi, bir zum-da oldimizda bug‘i chiqib turgan tovuqsho‘rva pay-do bo‘ldi. Tushdan so‘ng, butun to‘y ahli cherkovga yo‘l oldi. Rasmiy marosimlar ado etilgach, xonanda, sozandalarga navbat keldi. Hammaning ko‘z o‘ngida birinchi bo‘lib, kuyovning otasi – Moris amaki dikil-lab o‘yinga tushib ketdi. „Qani, davraga marhamat! – qichqirdi u mehmonlarni raqsga chorlab, – shunda qorinlaring biroz bo‘shab qolsa ajabmas“.

To‘yxonaga qaytib kelgach, hamma yana o‘zi-ni ovqatga urdi. Dasturxonga tortilayotgan turli xil

taomlarning oxiri ko‘rinmasdi. Kelin-kuyov sharafi-
ga birin-ketin qadah so‘zlari yangray boshladi. Otam
ham bir nima demoqchi bo‘lib, qadahni qo‘liga oldi,
mehmonlarga bir-bir qarab chiqqandan so‘ng:

– Kelin-kuyov Nandor va Valeriya uchun!
04.08.1980 sanasi uchun, bundan roppa-rosa uch oy
muqaddam Tito o‘lgan kun uchun olamiz! – dedi.

Bunga javoban Nandor bilan Valeriya unsiz jil-
mayib qo‘yishdi, mehmonlar orasidan kimdir qo‘li-
dagi qadahni otam tomonga qarab ko‘tardi, qandaydir
xotin esa norozi ohangda to‘ng‘illadi:

– Nima balo, jinni bo‘ldilaringmi, siyosatbozlik
qilgilaring kelsa, ana, katta ko‘cha, bu yerdan daf
bo‘linglar!

Yana allakim chapak chalib, „Miklosh to‘g‘ri
aytyapti“, deb qichqirgan edi, uning ovozini musiqa
sadolari ko‘mib yubordi. Shu payt otamning oldida
to‘satdan Moris amaki paydo bo‘ldi.

– Nima, hammamizni tiriklayin go‘rga tiqmoqchi-
misan? – dedi u otamga qarab xezlanib. – Yo bu yerda
urush qilmoqchimisani, gapir!

– Bas qil, bas qilsang-chi, – dedi otam unga javo-
ban. – Nima, hazilni ham tushunmaydigan bo‘lib
qoldingmi?

– Tito agar senga to‘g‘ri kelmasa, menga nima,
he...– Moris amakining birinchi marta so‘kingani
eshitildi.

Xayriyatki, ikkala aka-uka – Moris amaki va otam
bir-biri bilan jiqqamusht bo‘lmadi. Oradan biroz vaqt
o‘tgach, ular sho‘x musiqa sadolari ostida bir-biriga
qarab, go‘yo hech nima bo‘lmaganday, yana dikong-
lab raqsga tushib ketishdi.



II bob

KOSHIS OILASI

Oxirgi yili, sovuq kuz kunlarining birida onam uyga kech qaytdi.

– Sizlarga kutilmagan bir yangiligim bor, – dedi u hansirab nafas olarkan, uyga kira solib. – Biz tanlovda g‘olib bo‘ldik, Tannerlarning „Mondial“ kafeteriyasi bizga beriladigan bo‘ldi.

Ushbu kutilmagan xushxabarni eshitib, quloqlarimizga ishongimiz kelmadi. Axir, mana shu qishloqda o‘n uch yildan beri yashab kelayotgan bo‘lsak, vokzal yaqinidagi eng yaxshi do‘konning bizga ishonib topshirilishi hazilakam gap emas edi. Biz shu oqshom stol atrofida jamuljam o‘tirib, kelgusida qiladigan ishlarimiz rejasini bafurja muhokama qilishga kirishdik.

– Eng avvalo, yangi gulqog‘oz opkelish kerak, – dedi onam, – bu juda muhim.

– Balki devorga yangi, chiroyli soat o‘rnatish ham kerakdir, – taklif kiritdi otam, – menimcha, yomon bo‘lmasdi. Novvoyxonani ham o‘z o‘rnida qoldiramiz.

Shunday qilib, otam pishir-kuydir bilan, onam esa non yopish va ish yuritish bilan shug‘ullanadigan bo‘ldi, Nomi bufet yoki xizmat ko‘rsatish bilan mashg‘ul bo‘ladi, men esa o‘qishdan bo‘sh paytlarimda ularga yordam beradigan bo‘ldim.

Ha, bu voqea hayotimizda tub burilish bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki onam o‘tgan yillar mobaynida musofir yurtida yashashimiz uchun duch


Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/7-44

17

Kabutarlar baland uchadi



„Herzlich willkommen! – Xush kelibsiz!“ degan soʻzlar bilan kutib oldi. Oldinda bizni uning his-hayajonga toʻla ochilish kuni kutardi. Bu haqda qishloq roʻznomasi shunday deb yozgan edi:

„Mondial“ kafeteriyasi 1993-yil 3-yanvar kuni Koshis oilasi tomonidan qaytadan ishga tushirildi. Biz bu xonadonni yaxshi bilamiz. Mazkur oila ta-sarrufidagi mahalliy korxonaga yetti yil davomida aholiga namunali xizmat koʻrsatib keldi. Asli sobiq yugoslaviyalik bu oila aʼzolari bundan olti yil muqad-dam Shveysariya mamlakatining fuqaroligini qabul qilishgan“.



III bob

CHEGARACHILAR VA MAJNUNTOLLAR

„Mercedes-Benz“ mashinamiz bilan Tompadamiz. Tompa – kichkinagina venger-serb chegara punkti bo‘lib, 1992-yilning may oyidan boshlab u yerda Serbiya va Montenegroga qarshi embargo kuchaytirilgan va xalqaro havo yo‘li qatnovi ham bekor qilingan edi. Tompa so‘zi tarjimada xira, bo‘g‘iq, to‘mtoq, loqayd, befayz degan ma‘nolarni anglatishining o‘zidanoq bu joy bekorga shunday nom olmaganini bilib olish mumkin.

Nihoyat, bizning navbatimiz kelib, qahri qattiq chegarachilar pasportlarimizni bir-bir varaqlab, tekshira boshladilar. Kutilmaganda ulardan biri otamga:

– Mashinani chetga olib o‘ting, – dedi qo‘li bilan ishora qilib.

Boshdan oyoq qattiq tekshiruvdan eson-omon o‘tib olgach, shaharchaga qarab yo‘l oldik. Otam hamon tinchlanolmas, kimlarningdir go‘riga g‘isht qalab, bo‘ralab so‘kinardi. Nomi ikkovimiz ham, albatta, o‘shanda bunday nafratga nima sabab bo‘lgani ni tushunishga ojiz edik, uning ortidagi pinhoniyoq voqealardan esa keyinchalik voqif bo‘lganmiz.

Bu gal otamizning birinchi nikohidan tug‘ilgan qizi, o‘gay opamiz Yankani ko‘rgani borayotgandik. Biz uni Moris amaki bilan Mansi xola yoki buvijonimiz huzurida emas, balki daryo yaqinidagi mo‘jazgina restoranda uchratdik. Restoranga olib boradigan



yo'lning o'ng va so'l tarafida qator majuntollar o'sib yotar, ularning horg'in barglari daryo suvida cho'milib, go'yo allaqanday mahzun qo'shiq kuylayotganday tuyulardi.

Baland poshnali tufli kiygan, ko'inishdan quvnoq, ko'zlari chaqnab turgan, qandaydir mag'rur bu qiz bilan biz birinchi marta tanishayotgan edik.

– Senga sovg'a opkeldik, – dedi onam unga qo'lidagi paketni uzatarkan.

– Katta rahmat, – minnatdorchilik bildirdi Yanka, – meni yo'qlab kelganlaringiz uchun katta rahmat. Shveysariya zo'r bo'lsa kerag-a? Bu mamlakatda ariqlarda suv o'rniga sut bilan asal oqadi, deyishadi, shu gap to'g'rimi? Darvoqe, sizlarni ko'rgani borsam bo'ladimi?

– Albatta bo'ladi, nega bo'lmas ekan, – dedi otam. – Borsang, hammasini o'zing ko'rasan.

Yanka bilan 1984-yilning avgust oyida uchrashgan bo'lsak, oradan bir yil o'tib, ota-onam Moris amaki va Mansi xolanikiga mehmonga borishdi. Nomi va men buvijonimizga bog'idagi kartoshka, pomidor hosilini yig'ib-terib olishda yordamlashdik. Ishdan charchab, dam olgan paytlarimizda buvijonimdan otam haqida gapirib bering, deya iltimos qilardik. Shunda buvijonim:

– Bu haqida, afsuski, ko'p narsa bilmayman, otangiz haqida nimani bilishni istaysizlar o'zi, qizlarim? – deb so'rasa, biz:

– Otamning birinchi turmush o'rtog'i haqida bilgimiz keladi, otamiz u ayol bilan qanday tanishib qolgan, iltimos, shu haqda so'zlab bering, derdik.

– Xudo dunyoni nega yaratgan? – deydi buvijon kulimsib, boshidagi ro'molini to'g'irlarkan. – Bunga

javob topish mushkul. Xo'sh, kelinglar, yiggan-terganimiz bugunga yetarli, sizlar kartoshka-partoshka archib, tushki ovqat tayyorlanglar, men esa sizlarga Miklosh haqida bilganimcha aytib beraman, xo'pmi?

Buvijon bir menga, bir Nomiga sinovchan nazar tashlab, hikoyasini boshladi.


– Papuci (*bobojon – tarj.*) bevaqt olamdan o'tgach, Moris amakingiz oila boshlig'i bo'lib qoldi, bunga otangizning achchig'i kelib, uni tan olgisi kelmay yurdi. Otangiz tanishgan ayolning ismi Ibolya edi. Bir kuni Moris amakingiz „Miklosh raqs tushayotib, Ibolyani qo'lidan ushlab, uni o'pib oldi, endi unga uylanishi shart“, degan gap topib keldi. Mikloshning jahli chiqib:

– Xo'sh, u mening akam va mendan olti yosh katta bo'lsa nima qipti? Shu bois endi u mening hayotimga aralashishi kerakmi? – deb janjal qildi. Ibolya esa:

– Miklosh meni o'pgani rost, lekin g'idi-bidining nima keragi bor? Agar Miklosh xohlamasa, unga hech qanday da'voyi-janjalim yo'q, – dedi. Shu bilan hammasi bosti-bosti bo'lib, qulog'imiz tinchiganday bo'ldi. Biroq oradan bir-ikki oy o'tgach, kunlarning birida Miklosh oldimga kelib, Ibolyaga uylanmoqchi ekanligini aytib, „Qarorim qat'iy, chunki uni sevaman“, dedi. Shunda unga:

– O'zing shuni xohlasang, men nimayam derdim, yo'lingni to'solmayman, – dedim.

To'ydan so'ng, oradan yana bir-ikki oy o'tarotmas, otangiz uyga kam keladigan bo'lib qoldi. Ishdan keyin o'rtoqlari bilan allamahalgacha o'tirib, ichadigan, uyga kelmaydigan odat chiqardi. Moris amakingiz uni qidirib topar, kaltaklab uyga



opkelardi. Unga „esingni yig‘ib ol, yangi uylangan odam bo‘lsang“, deya yozg‘irardi.

Avvaliga buvijon o‘g‘illarining orasiga tushmaydi, biri bo‘lmasa biri insofga kelib qolar, deb sabr qiladi. Bir kuni Miklosh uyga kelavermagach, Moris uni izlab topib, o‘lasi qilib do‘pposlaydi. Miklosh og‘zi-burni qon, ko‘chada qarovsiz qolib ketadi. Uni qo‘shnilardan kimdir tanib qolib, yarim kechada buvijonga xabar beradi va uni o‘g‘lining oldiga olib boradi. Mikloshning yuz-ko‘zlari momataloq bo‘lib, behush yotardi. Uni bir amallab uyga opkelishadi. Bechora ona o‘g‘lini parvarishlab, oyoqqa turg‘izadi. So‘ng ikkala o‘g‘lini o‘z huzuriga chorlab, ularni tartibga chaqiradi.

– Biroq ikkoviyam, – deydi buvijon archilgan kartoshkalarni ikkiga bo‘larkan, – menga bo‘zarib qarashgan ko‘yi hech nima deyishmadi. Shundan sezdimki, aka-ukaning orasidan bir gap o‘tgan, ammo uning nima ekanini sira-sira bilolmadim.

Ittifoqo, bir kuni ko‘chada Mansi xolangizni uchratib qoldim. U kaminani bir finjon qahva ichishga taklif qildi. O‘sha kuni iliq shamol esib turardi. Mansi menga qahva quyib uzatarkan, jag‘i-jag‘iga tegmay, tinmay sayrardi. Qarasam, boshim og‘rib, tars yorilay deyapti, shunda unga, hoy Mansi, baraka topgur, gaplaring yig‘ilib qolganga o‘xshaydi, boshqa kuni bafurja aytib berarsan, maylimi, hozir boshim og‘riyapti, desam, bilasizlarmi, u nima dedi, „Iye, sirni eshitmay ketaverasizmi?“ deydi. „Qanaqa sir ekan?“ deb so‘rasam: „Moris Ibini yaxshi ko‘rarkan, Miklosh bo‘lsa, buni ko‘ra-bilaturib, akasini ahmoq qilgan“, deydi. „Xo‘sh, Mansi, shu gapni sen aytyapsanmi?“



desam, „Ha, hali bor haqiqatni aytganimcha yo‘q, aytmayman ham“, dedi.

Shunday qilib desangiz, jon qizlarim, o‘shanda Ibolya, Moris va Miklosh o‘rtasida men bilmagan qandaydir sir borligiga amin bo‘lganman. Ba‘zan bu haqda o‘ylab, o‘yimga yetolmay dahshatga tushardim. Buning ustiga, hech nima o‘zgarmasdan, eski hammom, eski tos, hammasi avvalgiday davom etavergan. Miklosh butun topganini ichkilikka sovurib yuraverdi, ishlamadi desam noto‘g‘ri bo‘ladi, yo‘q, u ishladi, biroq bir joyda sira qo‘nim topolmadi. Bitta joyda bir necha hafta, uzog‘i bilan uch, to‘rt oy ishlagach, u yerdan haydalavergan. Oxiri uni hech qayerda ishga olmay qo‘yishgan. Yanglishmasam, Miklosh o‘shanda yigirma yoshda edi. Lekin bu deparada Mikloshni katta-yu kichik yaxshi tanirdi, chunki u hammaga qo‘lidan kelgancha yordam berar edi. Faqat bitta aybi, kattalar bilan murosa qilolmasdi. Avvaliga u yer-bu yerda soatbay, kunbay ishlab yurib, ancha-muncha pul orttirdi, hatto Germaniyadan mototsikl ham sotib oldi. Bunga u qanday erishgan, hech kimning aqli yetmasdi.

Buvijon shu yerga kelganda, ko‘zoynagini qo‘liga olib, uni peshbandiga yaxshilab artdi. Nomi:

– Mototsikl dedingizmi? Ha, albomda fotosuratini ko‘rgan edik, – dedi hayajon bilan. – Otam mototsikl ustida qo‘llarini qovushtirib o‘tiribdi, barmoqlari orasida sigareta, egnida bashang kastum, kulib turganiga qaraganda, o‘shanda u baxtiyor edi, chog‘i.

– Ha, – dedi buvijon, – mototsikl uning eng katta baxti, quvonchi edi. So‘ng, – hikoyasini davom ettirdi u, – Miklosh haqida har xil bo‘lmag‘ur mish-mish



gaplar tarqaldi. Kimdir uni xonadonlarga varaqalar tarqatishda ayblaydi, odamlarni sotsializmni sabotaj qilishga undamoqda, degan tuhmat bilan ig‘vo qilib, „yuqori“ga yetkazadi. Xullas, u ishlardan ham ayrildi, kimki u bilan aloqa qilsa, jarima bilan jazolanadigan bo‘ldi. Oxir-oqibat unga „kontrevolyutsioner“ degan tamg‘a bosildi. Shunaqangi gaplarni tasavvur qila olasizlarmi? – dedi buvijon bizga yuzlanib.

Shu damda Nomi ikkalamizning ham tilimiz aylanmas, hattoki „yo‘q“ deyishga ham majolimiz yetmasdi.

– „Bekorlarning beshtasini yebsan!“ O‘shanda otangizning yomonlarga qarata javobi shunday bo‘lgan.

U barchasiga qo‘l siltab, endi o‘zini qora bozorga uradi, ya’ni chayqovchilik bilan shug‘ullana boshlaydi. Qayerdandir eng sara mollarni topib kelardi, buni qanday uddalagan, hanuzgacha aqlim yetmaydi. Qisqasi, ko‘pchilikning nazdida u qahramonga aylangan edi. Ana, motor kelyapti, deyishardi odamlar u haqda, bu gap mototsikl mingan otangizga tegishli edi. Darvoqe, – buvijon bir nima yodiga tushdi chog‘i, o‘ylanib qoldi, – ha-ya, sal bo‘lmasa Ibolya esimdan chiqay debdi. „Ibi“ – uni odamlar shunday deb chaqirishardi, hamon otangizni uyda behuda kutishda davom etardi, chunki u dam xiyobonda, dam daryo sohilida, dam biror o‘rtog‘inikida tunab qolsa qolardiki, ammo uyga deyarli qadam bosmay qo‘ygan edi. Gohida u tushga yaqin birdan paydo bo‘lib qolar, shundayam to‘g‘ri mening oldimga kirib kelardi. Bolam, senga nima bo‘lyapti o‘zi, deb so‘rasam, hech nima, deb qo‘yaqolardi. Bir safar, o‘shanda fevral oyi,

yarim metrcha qalinlikda qor yog‘gan, havo sovuq edi. U pechka oldiga muk tushib o‘tirarkan, qo‘llarini bir-biriga ishqab, hatto yuzimga ham qaramay, „Oyi, Ibi homilador“, dedi. „Ota bo‘larkansan-da“, dedim unga. „Xo‘sh, unda nega Ibolyani bunchalik qiynaypsan? Nima gap o‘zi, qani gapir“. Biroq u lom-mim demadi.

– Nahotki, hech nima demagan bo‘lsa?

– Yo‘q, hech nima demadi.

Buvijon tovadagi yog‘ qizigach, unga piyoz bilan ozroq tuz tashladi.

– Hademay ota-onangiz ham kep qoladi, tushlikni tezroq tayyorlashimiz kerak.

Men borib suv opkeldim, Nomi ovqatga unnay boshladi. Buvijon esa hikoyasini qolgan joyidan yana davom ettirdi.

– Birinchi oktabr kuni Yanka tug‘ildi. Kuzning favqulodda iliq kunlaridan biri edi, xuddi o‘sha kuni Moris amakingiz otangizning boshiga stul bilan urgan, zarbaning kuchidan stul sinib ketgan. Xo‘sh, nega? Chunki u bir oshnasinikida g‘irt mast holda, ozib-to‘zib o‘tirgan bo‘lgan. Amakingiz uning yoqasidan olib, sochlaridan, quloqlaridan tortgan, baqirgan, chaqirgan, yalinib yolvorgan, biroq befoyda – otangiz o‘ziga kelmagan. Xuddi shu paytda Ibolya tug‘ruqxonada, Miklosh esa boshi og‘ir jarohatlanib, o‘zini bilmay yotardi... „Yaxshi ish qilmabsan, o‘g‘lim, – dedim Morisga, – endi bundan buyon Mikloshni tinch qo‘y, tushundingmi?“ Shundan so‘ng, Moris men bilan anchagacha gaplashmay yurdi. Miklosh bilan Morisning bir-birini kechirib, yarashib ketishlariga negadir ko‘zim yetmasdi. Va bu achchiq-tirsiiq ancha uzoq davom etdi ham.

Otangizni ko‘p marta insofga chaqirdim, „Ibini qo‘lida bola bilan bunaqa tashlab qo‘ymagin“, desam, „Xo‘p, aytganingizni qilaman, oyijon“, dedi. Ichishni ham tashladi, ammo ko‘zimga ko‘rinmay yurdi. Shunda Yaratganga iltijo qildim, o‘g‘illarimga O‘zing insof ber, dedim. Biroq oradan bir-ikki oy o‘tib, Miklosh ajrashish to‘g‘risida ariza berdi-da, Ibolyani go‘dagi bilan uzil-kesil tashladi-ketdi.

– Endi sizlar menga va‘da berishlaring kerak, – dedi buvijon Nomi bilan mening qo‘llarimni o‘z qo‘llari orasiga olib, – opalaring borligini unutmashliklaring lozim, sizlarga aytadigan bundan boshqa iltimosim yo‘q, qizlarim. Meni to‘g‘ri tushunasizlar, deb umid qilaman.

Miklosh ko‘p o‘tmay, yana boshqasini topib oldi.

– Bizning onamiznimi?

– Ha. Uni kambag‘al oiladan deyishdi. Shaxsan mening kambag‘allarga nisbatan hech qanday qarshiligim bo‘lmagan. Ammo o‘sha damda bu ayolga qarshi edim, chunki u go‘zal bo‘lsa-da, u haqida bo‘lmag‘ur gaplar yurardi. Miklosh tushmagur yana aldanmasa edi, xunukroq bo‘lsa ham mayli, husniga non botirib yermidi, derdim o‘zimga o‘zim. Nima qilishni bilmay boshim qotgan, men uchun og‘ir damlar edi o‘shanda. Shunda, bir kuni tunda... bobongiz kirib qoldi, tasavvur qilyapsizlarmi, indamay karavotimga o‘tirdi, egnida dafn marosimida o‘zimiz kiydirgan o‘sha libos, ishonasizlarmi, „Men seni kutmagandim, Vinsent“, dedim unga, bobongiz esa hech nima demay, menga qo‘llarini uzatdi. Nima qilishni, nima deyishni bilmay, taraddudlandim, axir, qanday qilib, arvoonga qo‘l uzata olardim? Baribir uning qo‘llarini

olib, qo'llarimga bosdim, bobojoningizning qo'llari shunaqa ham issiq ediki, buni hozir sizlarga qanday qilib tushuntirishni ham bilmayapman, qizlarim, karavotda shu o'tirganimcha butun tun bo'yi o'tiribman, bir mahal badanim uvushib, qarasam, bobongiz yo'q, g'oyib bo'libdi.

– Ammo arvozni qo'l bilan ushlab bo'lmaydi, deyishadi, axir, u xuddi havoga o'xshaydi-ku, – dedi Nomi, qo'llari bilan bo'shliqqa ishora qilib.

– Bilmadim, arvohlar qanaqa bo'lishadi, ammo bobojoningizning menga ko'ringani rost, – buvijon shunday deb, qozonda qaynayotgan ovqatni bir qo'zg'ab qo'ydi, – ana endi kartoshkani solsak ham bo'ladi.


* * *

Buvijonimizning aytishicha, bir kuni otamiz va uning sevgilisini o'z huzuriga chaqiribdi. Ular kelib, stol atrofida buvijon bilan yonma-yon o'tirishibdi. Nima bo'libdi-yu, shunda buvijon bizning onamiz – Roshani yoqtirib qolibdi. Oradan bir necha oy o'tgach, otamiz bilan onamiz boshqa shaharga ko'chib ketishibdi.

– Bunga balki Ibolya sabab bo'lgandir? – qiziqib so'raymiz biz.

– Ehtimol, – deydi buvijon, – ammo Miklosh va Roshani yangi hayot boshlamoqchi bo'lishgan, bu esa yangi joyda osonroq kechardi.

Odamlarga esa o'shanda g'iybat uchun mavzu topilgan. Og'ziga kuchi yetmaganlar nima desa, degan. Bittasi, „shunday o'g'ilga qanday chidab yuribsiz, sizga to'zim bersin“, desa, boshqa birovi, „u bilan hali ham gaplashyapsizmi?“ deb so'raydi. Shu-



naqa savollardan so'ng, ko'zoynagimni asta qo'limga olib, bir zum indamay turardim-da, so'ng ularga ko'pincha: „yaxshiyam o'g'lim bor ekan, agar o'g'lim bo'lmaganda, mendan nimaniyam so'ragan bo'lardinglar...“ deb javob qaytarardim. Bundan ham yaxshiroq javob bo'lishi mumkinmi, o'zlaring aytinglar, qizlarim?

Ana endi otangiz haqida ancha-muncha narsani bilib oldilaring, bu albatta, yaxshi. Kamina o'z hayotim davomida shunga amin bo'ldimki, hayotda har bir inson bir emas, bir necha qiyofaga ega bo'larkan. Mana, ota-onangiz mo'jazgina do'kon ochishibdi, omadlarini bersin. U yoqda Shandor bilan uchrashibdi, agar bilsangiz, Shandor o'z turmush o'rtog'i bilan Shveysariyada yashayotganiga ancha bo'ldi. O'sha Shandor-da, ota-onangizni Shveysariyaga ko'chib kelishga undagan. Aslida ular Avstraliyaga ko'chib borishni rejalashtirgan edilar.

– Avstraliyaga deysizmi?

– Ha, Avstraliyaga.



IV bob


ILK ISH KUNLARI

Fevral oyining oxirlari. Barchamiz uyda edik.

– Endi ishlarimizni yaxshilab yo‘lga qo‘yib olmasak bo‘lmaydi, – dedi onam, hammamizga bir-bir qarab qo‘yarkan. – Ayniqsa, mijozlar oqimi ko‘paygan paytlarda nihoyatda ehtiyot bo‘lmog‘imiz lozim. Bunaqa paytlar, asosan, ertalabki soat to‘qqiz-to‘qqiz yarim, tushda o‘n ikki bilan bir, tushdan so‘ng esa uch yarim-to‘rt yarim o‘rtasida bo‘ladi. Shunaqa „nozik“ paytlarda kim kimga yordam berishini oldindan aniqlab olishimiz kerak bo‘ladi.

Oramizda faqat onamgina butun ishning past-balandini yaqqol tasavvur qila olardi, xolos. U ham-maga, eng avvalo, oshxonadagi ishlarda yordam berishi kerak edi, chunki otamiz dastlabki ish haftalarida biroz qiynalib qolgan, vaholanki, oshpazlik uning kasbi emas edi.

Korxonamizda ishlarni yurgizish uchun qo‘shimcha ishchi kuchlari talab qilinardi. Shuning uchun mahalliy gazetalarga e‘lon berib, asosan, shveysariyaliklarni jalb qilmoqchi bo‘lganimizga qaramasdan, aksariyat xorijliklar ishga qabul qilishimizni so‘rab, bizga murojaat etishdi. Dragana bilan Gloriya shular jumlasiga kiradi. Ota-onam oshxonada ko‘pincha vengercha gaplashishsa, Dragana va Gloriya bir-biri bilan serb-xorvat tilida so‘zlashishardi. Ammo mijozlarga xizmat ko‘rsatish zalida nemischa gapirishga



qat'iy amal qilishimizga to'g'ri kelardi, chunki mijozlar boshqa tilda gaplashayotganimizni eshitib qolgudek bo'lishsa, bu ularning ko'nglida shubhagumon uyg'otishi, eng yomoni, ishimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Mart oyidan men ham xizmat ko'rsatish bo'limida Nomiga yordam bera boshladim.

– O'qishing nima bo'ladi? – so'radi oyim.

– Nima bo'lardi, kutib turadi, – dedim.

Goho, qarindosh-urug'larimizdan birontasi biz bilan birga ishlay olarmikin, agar ishlay olishsa, bu ular uchun ham harna moddiy madad bo'larmidi, deya o'zimcha o'ylab qolar va Mansi xolam bilan Isu xolamni xizmat ko'rsatish zalida yoki bufetda ishlayotgan holda tasavvur qilib ko'rardim. Keyin esa o'zimga o'zim yo'q, ular bu yerda ishlay olmaydilar, derdim. To'g'ri, Isu xola bilan Piri amakining qizi Silla o'tgan yozda bizda bir muddat ishlab ketishgan edi. Silla o'ttizga kirgan, teri xastaligi bilan og'rigani bois tishlari to'kilib ketgan, sun'iy tishlar qo'ydirishga esa puli yo'q edi.

U: „Ishlab topgan pulimning bir qismini to'plab, yangi tishlar qo'ydiraman“, deb astoydil niyat qilgan edi. O'shanda Silla ikkinchi qavatda – oshxonada, mijozlarga ko'rinmasdan ishlardi. Nomi bilan men unga, „Og'zingni ocha ko'rma, ayniqsa, ko'chada hushyor bo'lgin, yo'qsa hamma sendan qo'rqib qochib ketadi, chunki shveytsariyaliklar bunaqa narsaga ko'nikishmagan“, deb uqtirardik.

Ayniqsa, Isu xola bilan Piri amakining o'g'li, xolavachchamiz Bela bu yerda umuman ishlay olmasa kerak. Uning hamma tishlari har holda butun bo'lsa-da,



ammo bironta ham nemischa soʻz bilmasligi, buning ustiga biroz qiziqqonligi uning ishlab ketishiga mone-lik qilgan boʻlardi.

Bir kuni onamga shular haqida soʻz ochgan edim, u meni jerkib tashlashiga sal qoldi.

– Nima, Ildi, bu bilan meni Isu xolang uchun ni-malar qila olishim toʻgʻrisida sira oʻylab koʻrmagan-siz, demoqchimisan?

– Yoʻq, yoʻq, unday deyayotganim yoʻq, – desam, qayoqda, onam menga quloq solmay, tinmay gapira ketdi.

– Xoʻsh, Isu xolang boʻlmasa, Piri amaking bilan Sillaning holi ne kechadi, shu haqida sira oʻylab koʻr-dingmi? Qolaversa, u bu yerlarga qanday qilib keladi? Unga vizani qayoqdan olamiz? Serbiya elchixonasi-ga shu masalada necha marta qoʻngʻiroq qilganimni bilasanmi, axir u yerda 1991-yildan beri urush keta-yotgan boʻlsa? Bu haqda bosh qotiraverib, kechalari uxlamay chiqishimni sen qayoqdan ham bilarding.

Nomi onamning qoʻllarini olib:

– Yoʻq, oyijon, u bunday demoqchi emasdi, – dedi meni nazarda tutib, – siz uni notoʻgʻri tushundingiz.

– Endi yana eshitinglar, – soʻzida davom etdi onam, – agar bilsanglar, men ularni bir zum ham unutganim yoʻq. Yaqinda Isu xolangga xat bilan ancha-muncha pul joʻnatdim, ular bu pulga yarim yil tirikchilik qilishlari mumkin. Faqat muammo shundaki, xatim manzilga eson-omon yetib borarmi-kin, u yerdagi pochtachilar ham xuddi Shveysariya-dagi kabi xat-xabarlarni egalariga oʻz vaqtida eltib berisharmikin? U yerdagi pochta va boshqa davlat idoralarida bitta-ikkita boʻlsa ham halol odamlar



qoldimikin? Mana, masala qayerda. – Onam, aftidan, uyda emas, balki ishxonada ekanimizni unutgan chog‘i, boyadan beri tinmay vengerchalab gapirardi. – Eshityapsizlarmi, haboru⁷ ham hademay tugab qolar, hozir bizlarning qo‘limizdan keladigan yagona ish – kutish, sabr qilish, kelajakka umid bilan boqish, tushundilaringmi? Sen bo‘lsang, Ildi, qayoqdagi gaplar bilan boshimni qotirasan. Undan ko‘ra, ishingni qilsang-chi.

Gaplarimiz Gloriyaning qulog‘iga g‘alatiroq eshitildi, shekilli, biz tomonga qayrilib nim jilmayarkan:

– Tinchlikmi, hammasi joyidami? – deb so‘radi.

Nomi ikkimiz bir-birimizga bir zum qarab oldik-da, so‘ng baravar ishimizga unnab ketdik.

⁷ Haboru – vengerchada „urush“ degani.





V bob

SEVGI QISSASI

O‘shanda 1986-yilning yozi edi. Yarim kechasi oq „Mercedes“imiz bilan Isu xolanikiga yo‘l olganimiz. Manzilga yetay deganimizda, mashinamiz balchiqqa botib qoldi. Otam tinmay gaz berar, so‘kinar, g‘ildiraklar joyida g‘irillab aylanardi. Yomg‘ir yog‘gani uchun hamma yoq loy, botqoq, ulov tugul, piyoda ham yurolmaydigan holatda edi. Otam mashinadan tushib, balchiqni chapillatib bosganicha xolamning uyi tomonga qarab ketdi. Sal o‘tmay, o‘sha tarafdin itlarning vovullagani eshitildi. Nihoyat, otam xolavachchamiz Bela bilan qaytib keldi va mashinani bir amallab botqoqdan chiqarib oldik.

* * *

Isu xolam topgan-tutganini dasturxonga keltirib qo‘ydi. Stol atrofida suhbatimiz qizigandan qizidi. „Vaqtning o‘tishini qarang-a, – derdik bir-birimizga, – ko‘rishmaganimizga ham ancha bo‘libdi. Xo‘sh, qanday yangiliklar bor?“ „Bizlarda nima yangilik ham bo‘lardi, – deydi mezbonlar, – atirgullarimiz bu yil nimagadir gullamadi, lekin cho‘chqalarimizning soni yigirmatadan oshib ketdi, bitta muammo shuki, kanalizatsiya tarmog‘imiz haliyam yaxshi ishlamayapti, tepadagi kattalarimiz esa quruq va‘dadan nariga o‘tishmaydi, shunaqa gaplar. E, qo‘yinglar shu siyosatni, yaxshisi, qittay-qittay olaylik“. Piri amaki

aroqni ochib, qadahlarni to‘ldirdi-da: „Qani, oldik, yaxshi bo‘lsin, o‘g‘ri, muttahamlarga ham Xudoyimning o‘zi insof bersin! Yaqinda, – qadahni bir ko‘tarishda bo‘shatgach, davom etdi u, – velosipedimni o‘g‘irlab ketishibdi, xumparlar...“ – dedi.

Bela biroz o‘tirgach, ishlarim bor, deya uzr so‘rab chiqib ketdi. Ana endi Piri amaki bilan otamga Xudo berdi. Ular yonboshlab olib, to tongga qadar ulfatchilikni davom ettirishdi.

Ertalab soat olti bo‘layozgan, Isu xolam uyda kuymalanib yuribdi. Tugunchaga bir nimalarni tugib, tayyorlab qo‘ydi, demak, bir nimani rejallashtirgan ko‘rinadi.

– Erkaklarni bezovta qilmanglar, – dedi Isu xolam hammamizga eshittirib, – kayflari tarqaguncha yotaverishsin.

Bir finjondan qahva ichdik-da, tashqariga chiqdik. Onam Isu xolamning qo‘lidagi tugunni oldi. Nomi ikkovimiz sumkalarimizni yelkaga ilib, ularning ketidan ergashdik. Isu xolam darvozani yopayotib, qo‘li bilan dag‘dag‘a qilgach, itlar g‘ingshib, inlariga kirib ketishdi.

Ko‘chaga chiqishimiz bilanoq, onam bilan Isu xolam bir-birlarini qo‘ltiqlab, gapga tushib ketishdi, biz ularning ortidan pildirab, suhbatlariga qiziqib qu-loq sola boshladik, ammo gap nima haqda ekanligini sira tushunolmadik. „Qattiqroq gapirsalaring-chi“, desak, qayrilib ham qaramay, „Hamma narsani bilishlaring shart emas“, deyishdi. Nomi achchig‘i chiqib, „Bularning xuddi Siam egizaklariga o‘xshab ketishlarini qara“, dedi-da, kulib yubordi. Shunda onam bilan xolam joylarida taqqa to‘xtab, biz tomonga



o'g'irilishdi, „Iye, bu nima qiliq? – dedi onam, – yosh qizchalarga o'xshab hirlinglaysizlar-a!“

Nomi ikkovimiz onam bilan xolamning suhbat mavzusi Silla haqida bo'lsa kerak, deb o'ylagan edik, taxminimiz to'g'ri chiqdi. Bundan bir necha oy avval Isu xolam pochtaxonadan onamga qo'ng'iroq qilib, qizi Silla qandaydir yigit bilan ketib qolgani, hozir qayerdaligini hech kim bilmasligini aytib, yig'lab-siqtagan edi. Piri amaki esa Sillaning qil-mishidan darg'azab bo'lib, ko'zimga ko'rinsa, uni sog' qo'ymayman, debdi.

Demak, Silla sevgan yigiti bilan qochib ketibdi. „Xo'sh, buning nimasi yomon, osmon uzilib, yerga tushibdimi?“ degandik o'shanda onamizga. Onamiz bo'lsa, indamay telefonga termilib turib qolgan-di. So'ng: „Sizlar nimaniyam bilardinglar, otasi sog' qo'ymayman debdi, bu nima degani, qizning hayoti xavf ostida-ku, nahotki shuni tushunmasanglar?“ – degan edi. To'g'ri, onamiz doim bizning yonimizni olar, otam bilan ziddiyatlar yuzaga kelgan paytlarda, ularni o'z holiga qo'y, axir o'zing ham ularning baxtli bo'lishini xohlaysan-ku, derdi.

Taxminan bir soatcha yo'l yurdik, nihoyat, kalta-kulta taxtalardan, latta-puttalardan kapa, chaylarga o'xshatib, naridan beri tiklangan „uyalar“ ko'zga tashlandi. Hamma yoq loy, balchiq, axlatlar uyulib yotganidan yo'l topib yurish ham amri mahol edi.

– Sillam shu yerda turadi, – dedi Isu xolam bir uyni ko'rsatib. – Silla, Silla, xolang, mehmonlar keldi, chiqaqol!

Silla mudroq ko'zlarini ishqalaganicha chiqib kelib, bag'rimizga otildi, ko'rishib bo'lgach, darrov sigareta tutatdi.



– Voy, meni ko‘rgani kelibsizlar-da, men buni bilardim! – u hiqillab yig‘lagan ko‘yi dam yuzlarimizdan, dam qo‘llarimizdan o‘pa boshladi. – Nomi, Ildi, qalaysizlar, mendan so‘rasanglar, men ham yaxshiman, mana, o‘zlaring ko‘rib turibsizlar, biroq Sabamni hozir sizlarga tanishtira olmayman, – dedi u hamon yig‘larkan, – chunki u yo‘q, ertalab chiqib ketgan.

– Bo‘ldi, yig‘ini bas qil, – dedi Isu xola, – undan ko‘ra bizga qahva tayyorla, keyin Rosha xolangning senda gapi bor.

– Uyda qahva yo‘q edi, – Silla xijolat bo‘lib, burnini tortib qo‘ydi.

Isu xola qahvani stolga qo‘ydi, Silla battar xijolat tortib, qahvani va mayda-chuyda solingan tugunni indamay oldi-da, sizlar o‘tira turinglar, men hozir, dedi.

– Shoshma, qayerga o‘tiramiz? – hayron bo‘lib so‘radi Isu xola.

Silla yugurib qo‘shni xotinnikidan ikkita stul olib chiqdi.

– U bu yerda qanday yashaydi? – dedi Nomi menga sekingina, biroq Isu xolaning quloqlari yaxshi eshitardi.

– Buni uning o‘zidan so‘ranglar, – dedi xola va stol ustini latta bilan arta boshladi. Silla bo‘lsa, o‘zida yo‘q xursand, dam menga, dam Nomiga, dam onamga mehribonchilik qilar, o‘zimning xolajonim, deya aylanib, o‘rgilardi.

– Obbo Sillaginam-ey, – dedi onam ham uni yana bir bor quchib, bag‘riga bosarkan, – o‘zing tuzukmi-san, ishqilib?

– Bir navi, mana, yuribman, – dedi Silla, qandaydir iymanib.



– Menga qara, qizim, – dedi onam unga deyarli shivirlab, – bugun senga bir voqeani hikoya qilib bermoqchiman, uni qayg‘uli sevgi qissasi desa ham bo‘ladi, qanday xulosa chiqarish esa o‘zingga havola, xo‘pmi?

– Xo‘p, xolajon, jonim bilan eshitaman.

– Ittifoqo, – hikoyasini so‘ylay boshladi onam, – bir qiz noma‘lum bir yigit bilan tanishib, uni qattiq sevib qoladi. Yigit ikki yillik harbiy xizmatga ketadi. Qiz yigitni sog‘inib, o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi. Nihoyat, dardini onasiga aytadi, onaizor noiloj rozi bo‘ladi. „Qiz otam meni so‘ksa ham, urisa ham, mayli, faqat sevgilimning jamolini bir ko‘rsam bo‘ldi“, deb padari buzrukvoriga bildirmay, yigit xizmat qilayotgan harbiy qismga otlanadi. Ota bundan xabar topgach, g‘azab otiga minib, butun zahrini xotiniga sochadi, „Sen buni bilgansan, ammo menga aytmagansan“, deya uni iskanjaga oladi. Mushtipar ona qizining yonini olib, uni tinch qo‘y, yo‘qsa, qizingdan butunlay ayrilib qolasan, deydi eriga.

Qiz uzoq yo‘l bosib, manzilga eson-omon yetib boradi. Yigit uni qo‘lida guldasta bilan shodon kutib oladi. Sevishganlar uch kecha-yu uch kunduz birga bo‘lishadi. Qiz yigitning: „Harbiy xizmatdan qaytgach, albatta, senga uylanaman“, degan va‘dasini olib, nihoyat, uyga qaytadi. Baxtga qarshi, o‘sha yili qizning onasi to‘satdan vafot etadi. Qiz mehribon onajoni xotirasiga atab, qabriga marmar yodgorlik o‘rnatmoqchi bo‘ladi. Biroq xasis, qurumsoq ota bunga rozi bo‘lmaydi.

Ona dafn etilgandan so‘ng, oradan ko‘p o‘tmay, qiz homilador ekanini bilib qoladi, biroq bu haqda



otasiga og‘iz ochishga jur‘ati yetmaydi, faqat yaxshi ko‘rgan yigiti borligini aytadi, xolos. Otasi uni urishadi, so‘kadi, fohisha deb haqorat qiladi. Ammo qiz onasining yo‘qligini bildirmay, otasiga qaraydi, ovqatini pishirib, kirlarini yuvadi. Bir kuni qishga o‘ting‘amlash uchun otasidan pul so‘raydi, ziqna ota esa pul berish o‘rniga, uni oldiga solib quvadi, qiz bechora zo‘rg‘a qochib qutuladi. Oradan bir-ikki kun o‘tib... bo‘lajak ona boladan mahrum bo‘ladi. Qiz tushkunlikka tushib, iztirob chekadi, kun sanab, sevgilisining qaytishini intizorlik bilan kutadi. Ammo yigit qaytmaydi...

Keyinchalik ma‘lum bo‘lishicha, otasi yigitning oldiga borib, unga bor „haqiqat“ni – qizi boshqa bittasini topib olganini aytib, o‘zini g‘oyat afsuslangan qilib ko‘rsatadi. Qiz bechora endi nima qilishni bilmay hayron, nahotki, yigit undan bir og‘iz nima gapligini so‘rab ko‘rish o‘rniga, otaning soxta gaplariga laqqa tushib, sevgan qizini osongina tashlab ketaversa? Qani bu yerda mantiq, qani adolat va haqiqat?!

Onam hikoyasini tugatgach, Sillaga shunday dedi:

– Bilib qo‘y, agar otangning xohishiga qarshi ish tutadigan bo‘lsang, hamma senga qarshi turadi, shuni unutma, qizim. Albatta, Piri amakini hikoyadagi ota bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Lekin shu narsa aniqki, o‘z ota-onasini rozi qilgan farzand aslo kam bo‘lmaydi.

Silla onamga ibratli hikoyasi uchun minnatdorchilik bildirarkan, „ko‘zimni ochganingiz uchun rahmat“, ham dedi. Biroq u hozirgi hayoti o‘ziga ma‘qul ekanini e‘tirof etarkan, bugun tushiga farish-ta kirib, unga Saba bilan qashshoqlikda turmush ke-




chirishi taqdir-qismat ekanini anglatgani haqida ham aytib berdi. Buni eshitgan Isu xola birdan sapchib tushdi:

– Nima, nima! Endi aytmagan bir farishtang qo-luvdimi? Menga qara, – dedi u qiziga zarda bilan, – qachon borsang, eshigim sen uchun ochiq, lekin shuni bilib qo‘y, farishtangni mening uyimga sudrab bormagin, tushundingmi?

Isu xola shunday deb, qizi bilan xayr-ma‘zur ham qilmay, bizga qarab, „qani, ketdik“, dedi. Onam, Nomi va men Silla bilan tezgina xayrlashib, ko‘chaga yo‘naldik.





VI bob

YURT QAYG'USI

Dragana bizning oshxonamizda ertalab soat yettidan kech soat oltigacha ishlardi. Bir kuni u ishga juda yomon kayfiyatda keldi.

– Tinchlikmi, nima gap? – deb so‘rasak:

– Uydagilardan, o‘g‘limdan xavotirdaman, – dedi u. – Kecha televizorda ham ko‘rsatishdi, Sarayevu bir yildan beri (5-aprel, 1992) qamal ichida...

– Dragana sarayevolik emasmi, u serbmi, xorvatmi? – so‘raydi Nomi asta, u sal nari ketgach.

– Gapning ochig‘i, aniq bilmayman, – deydi otam, – bilishni ham istamayman, yaxshisi, bunga aralashmaganimiz ma‘qul. Ishxonada siyosatbozlik qilishning keragi yo‘q, ayniqsa, vaziyat qaltis bo‘lgan hozirgi paytda. Agar kimdir sizlardan bu haqida fikr so‘rab qolgudek bo‘lsa, bizda hech qanday fikr yo‘q, deb aytinglar.

– Ildi, eshityapsanmi, ularning ovozlari? Biz, serblar, aybdor emasmiz, deyishyapti ular.

– Ha, eshityapman, – deyman atay Dragananing ko‘nglini ko‘tarish uchun. U menga o‘g‘lining fotosuratini ko‘rsatadi, uni g‘oyibona suyib, o‘padi. So‘ng kunda qiladigan ishlariga unnab ketadi.

– O‘g‘lingning ismi nima? – so‘rayman undan.

– Dalilo! – deydi Dragana va pichoqcha bilan kartoshkaning „ko‘z“larini o‘ya boshlaydi. – Kecha singlimdan xat oldim, – so‘zida davom etdi u allaqanday ma‘yuslanib. – Nimalarni yozganini bilasanmi?



– Yo‘q, – deyman o‘zimga o‘zim, singling nimalarni yozganini bilmayman, bilishni ham istamayman.

– Unda quloq sol, – deydi Dragana, xuddi fikrimni uqib olganday, – singlimning yozishicha, shahar hozir xuddi patlari yulingan tovuqqa o‘xsharmish, daraxtlar deyarli qolmagan, hammasini yoqib tugatishibdi. Bu hali hammasi emas, hatto ichishga ham suv yo‘q ekan. Kasalxonalarining qishda ham isitilmasligini aytmasayam bo‘ladi...

– Balki bu haqda keyinroq gaplasharmiz, – deyman Dragananing gapini bo‘lib. – Nima deding?

– Qo‘rqyapsanmi? Ha, hammamiz qo‘rqamiz, – deydi u, bexosdan pichoqni menga to‘g‘rilarkan.

– Hoy, shoshma, nima qilyapsan? – deyman unga, – axir, men kartoshka emasman-ku. Yo chindan ham sen – bosniyalik serb, men esa Serbiyaning Voyvodina viloyatidan qolgan venger hozir mana shu oshxonaning linoleum to‘shalgan poli ustida dumalab, tinchib qo‘yaqolsak, dunyoning muammolari biroz bo‘lsa-da, kamayardi deb o‘ylaysanmi? Yo‘q, adashasan, Dragana, adashasan.

– Nimaga unda biz – serblarni hamma odamxo‘r deb o‘ylaydi, Ildi? – savol bilan boshimni qotirishda davom etadi Dragana.

– Nega unday deysan, Dragana?

– Quloq sol, mana, hozir ikkovimiz – men bosniyalik serb yoki Serbiyada yashovchi bosniyalik bo‘lsam, sen esa serbiyalik venger bo‘lsang, nima, shuning uchun endi bir-birimizga ashaddiy dushman bo‘lishimiz kerakmi? Bu bema‘nilik emasmi, axir?

O‘ylab ko‘rsam, Dragana haq edi. To‘g‘ri-da, basharti mening xolavachchalarimdan kimdir venger bo‘lgani bois Yugoslaviya xalq armiyasi safida jang

qilishni xohlamay qochsa, shunday bo'lishi mumkinmi, mumkin. Xo'sh, endi uni Dragananing yugoslav xalq armiyasi saflarida xizmat qilayotgan jiyanlaridan biri otib tashlashi mumkinmi, buyam mumkin, chunki armiyadan qochganlar otib tashlanadi, bu aniq. Yana shunday bo'lishi ham mumkinki, Dragananing qarindosh-urug'laridan birontasi bosniyalik, ya'ni bosniyalik serb bo'lgani uchun Yugoslaviya xalq armiyasi safida jang qilishni istamagani bois, uni mening xolavachchalarimdan kimdir otib tashlashi ham mumkin, chunki o'sha xolavachcham, ehtimol, o'z hayotini saqlab qolish uchun yugoslav xalq armiyasi saflarida xizmat burchini ado etayotgan bo'lishi mumkin. Lekin hayot degani shundayki, biz hozir mana shu oshxonada valaqlashib turgan paytimizda ularning ikkaloviyam qandaydir xorvatning daydi o'qiga uchib, halok bo'lishlari ham mumkin. Xullas, oldindan bir nima deb bo'lmaydi, buni hayot deb qo'yibdi.



VII bob

AGAR DARYO BO'LSAYDIM...

1989-yilning aprel oqshomi. Kutilmaganda uyimizda telefon jiringlab qoldi. Go'shakni otam oldi va turgan joyida bir zum indamay qoldi. Bu holat ancha davom etgach, onam va Nomi ikkimiz nima gapligini bilolmay, xavotirlandik. Nihoyat, otam ko'zlarida yosh bilan bizga ma'yus termildi – sevimli buvijonimiz olamdan o'tgan ekan.

* * *

Barchamiz – otam, onam, amakivachcha-yu xolavachchalarimiz, uzoq va yaqin qarindosh-urug'lar, buvijonimizning yaqin dugonalari, ukasi – Pista tog'a, Moris amaki va boshqalar buvijonimiz qabriga bir hovuchdan tuproq tashlab, joyingiz jannatda bo'lsin, deya duoyi fotiha qilgach, tarqaldik. Buvijonimiz qabrlariga sukunat cho'mdi. Biroq ana shu ulug'vor sukunat qo'ynida buvijonimning ushbu sevimli qo'shig'i quloqlarim ostida mag'rur jaranglardir:

Agar daryo bo'lsaydim,

Og'riqlar bo'lur edi

Menga begona.

Baland tog'lar va vodiylar aro

Qirg'oqlarni yuvib,

Maysalarni chorlab hayotga,

Tashna qushlarga

Obihayot ulashib,



*Asta oqar edim,
Agar daryo bo'lsaydim...*

Xo'sh, buvijonimiz va bobojonimiz haqida biz nima bilamiz?

1988-yilning seryog'in yoz fasli, o'shanda otanamiz birinchi kafeteriyani ochishgan edi. Qarindoshurug'larimizni birrov ko'rib kelish uchun bir necha kunga vatanga – Voyvodinaga borganmiz. Ketlaringdan xuddi it quvayotganday muncha shoshmasalaring, degandi Piri amaki hazillashib, bizning shoshib-pishib yurganimizni ko'rib.

Qarindoshlarimiznikida navbati bilan mehmon bo'lar ekanmiz, mezbonlarga Shveytsariyadagi hayotimiz, kafeteriyadagi faoliyatimiz haqida birma-bir so'zlab berardik. Shunda mezbonlardan kimdir bizdan: „Iye, shveytsariyaliklar ham qahva ichishga vaqt topishadimi?“ deya hayron bo'lib so'radi. „Topishganda qandoq! – javob qildi otam. – Ular qahvaxonaga har kuni kelishadi, bir-birlari bilan gurunglashib, yangiliklardan boxabar bo'lishadi. Boyman deb uylarida qamalib o'tirishmaydi. Ha, shveytsariyaliklar pullarini o'z foydalariga ishlatishni yaxshi bilishadi“.

Otam so'zini tugatishi bilan hamma birdan kulib yubordi:

– Pulni o'z foydasiga ishlatish, bu nima degani, axir, ular qahvaxonaga kelib, pul sarflashadi-ku, shunday emasmi?

– Shundaylikka shunday, lekin gap bu haqda emas, balki, aksincha, ya'ni shveytsariyaliklar pul topishni ham, dam olishni ham bilishadi, degan ma'noda edi.

Mezbonlar o'z turmushlari haqida hikoya qilisharkan, bu yerda hayot tobora og'irlashib borayotganini

ta'kidlashdi, agar yog'ingarchilik shu zaylda davom etaversa bormi, makkajo'xori va kungaboqardan mo'ljaldagi hosilni olish to'g'risida gap bo'lishi ham mumkinmas, deyishdi ular.

Gapdan gap chiqib, suhbat mavzusi Amerikaga borib taqaldi. Moris amaki amerikaliklarning zo'r mashinalarni ixtiro qilganliklari va u yerdagi bepoyon bug'doyzorlarda mo'l hosil yetishtirilishini og'iz ko'pirtirib maqtarkan, kutilmaganda otamga:

– Menga qara, – dedi, – shu, senlarga ham qoyilmasman-da, Yevropada qolib nima qilardilaring, o'shanda birato'la Amerikaga borib qo'yaqolishlaring kerak edi.

– E akajon, – dedi otam, – qo'ysangiz-chi bunaqa gaplarni, siz avval bizning joylarga borib ko'ring. Nima desangiz deng-u, ammo bizlar to'g'ri ish qilganmiz.

Qarindosh-urug'lar bilan suhbatimiz to'kechga qadar shu tarzda davom etdi. Qosh qoraygach, nihoyat, buvijonimizni yo'qlab bordik. Kechqurun u kishining mo'jazgina oshxonasida o'tirarkanmiz, Nomi: – O'zi bugun kun bo'yi nima haqda gaplashdik, sira eslolmayapman, – dedi. – Chamamda hammasi aralashquralash bo'lib ketdi-yov.

– Qo'yaver, parvo qilma, – dedi otam uning gapini bo'lib. – Shunaqasi ham bo'lib turadi. Xo'sh, biroz dam olvolgan bo'lsalaring, qani, endi Pista tog'angnikiga ketdik, u kishiga kechqurun boramiz, deb va'da berib qo'yganman.

– Yo'q, – dedik Nomi ikkimiz oyoq tirab, – biz borolmaymiz.



– Yaxshisi, er-xotin ikkovlarning boraqolinglar, – dedi buvijonimiz bizning yonimizni olib. – Pista tog‘asi jiyanlarini ko‘rgani o‘zi birrov kelib ketar, xo‘pmi?

Yomg‘ir hamon tinmay yog‘ar, gohida oshxona derazasini ham „chertib“ qo‘yardi. Nomi, men va buvijonim uchovimiz o‘z xayollarimiz bilan andarmon bo‘lib, indamay o‘tirardik.

– Hoy, menga qaranglar, – dedi bir mahal buvijonim, o‘rtadagi jimlikni buzib, – endi shunaqa qilib til tishlab o‘tiraveramizmi? Men hozir sizlarga bobojoningiz haqida bilganimcha gapirib bersam, nima deysizlar?

– Zo‘r bo‘lardi, – chuvilladik biz, – bajonidil eshitamiz, buvijon.

– Otangiz sizlarga bobojoningiz haqida hech gapirib berganmi? O‘zi bobojoningiz to‘g‘risida biror nima bilasizlarmi?


– Biz bobojonimizning qachonlardir mehnat lagerida bo‘lganini, mehnat bayrami – 1-may kuniga bitga qarshi bir kilogramm poroshok so‘raganini bilamiz, xolos. Otamiz ham bizga bu haqda gapirib bergan edi. Bobongiz nima uchun Pozarevachga jo‘natilganini bilasizlarmi, deb so‘ragandi o‘shanda. Biz esa buni bilmasdik.

– O‘shanda 1-may kuni bobongizga qo‘shimcha tarzda bitga qarshi bir kilo poroshok jo‘natganmiz, uni buvijoningiz va Moris amakingiz bilan birgalashib topganmiz, – deb hikoya qilgandi otam. – Mehnat lagerida bobojoningizni bitlar chaqib tashlagan, poroshokni shu bois so‘ragan. Mehnat lageridan qaytib kelganida, otamni tanimay qolganmiz. Yuzini

yara-chaqa bosib, sochlari oqarib, o'zi ozib-to'zib ketgan, rang-ro'yi bir ahvolda edi.

– Ha, o'shanda bobojoningizga bitga qarshi poroshok jo'natganimiz to'g'ri, – dedi buvijonimiz horg'in o'yga tolib. – Avval gapirib beray, so'ng sizlarga bobongiz suratini ham ko'rsataman. – Buvijonimiz shunday deb, hikoyasini boshladi. – Bilasizlarmi, qizlarim, bobongiz hali o'lmagan bo'lardi, uni va yana boshqa ko'pgina begunoh odamlarni yomonlar o'ldirib yuborishgan. Hayotda shuni unutmangki, jon qizlarim, yomonlik yo'q bo'lib ketmaydi, hamisha ogoh bo'lmoq lozim. Mana, hozirgi kunlarda ham yomonlikning qo'lansa hidi sezilib turibdi (keyinchalik, Shveysariyada bo'lgan chog'imizda, buvijonimiz aytgan gaplarning naqadar to'g'ri ekaniga amin bo'ldik).

Bobongiz bilan men har doim mol-hol boqib, tirikchilik o'tkazib kelganmiz. Dehqon odam boshqa nimayam qilardi. Mol-qo'y, cho'chqa, otlarimiz, g'oz-o'rdaklarimiz bor edi. Qo'rg'onimizda to'rtta itimiz bo'lardi. Basharti qo'rg'onga bironta begona odam yaqinlashsa, itlar hurib, belgi berardi. Ayniqsa, ulardan biri – Vigech nihoyatda hushyor, sezgir it edi. Biron xavf tug'ilsa, u birinchi bo'lib vovullay boshlar, so'ng unga boshqalari ham qo'shili-shardi. 1942-yil, qattol urush kuchaygan kezlarda. Fashistlar qo'rg'onimizga birinchi marta bostirib kelgan mash'um kun hamon esimda. O'sha kuni oqshom uyda hammamiz – bobongiz, otangiz, Moris amakingiz va men stol atrofida ovqatlanib o'tirardik. Kutilmaganda Vigech vovullay boshladi, so'ng birdaniga ovozi o'chdi. Bobongiz shartta o'rnidan turdi-da, barchamizga birma-bir qarab chiqib: „Qimirlamay



o'tiringlar“, dedi va qo'lini tezgina yuvib, tashqariga chiqdi.

Albatta, men ham joyimda qimirlamay o'tirolmasdim. Orqa eshikdan asta pusib, bog'ga chiqdim va nimalar bo'layotganini kuzata boshladim. Mundir kiygan qandaydir notanish uch nafar kimsalar quduq yonida qo'llarini qovushtirib turishardi. Bu yerga piyoda kelishganmi yoki velosipeddami, bilolmadim. Vigech ularning shundoq yaqinginasida quloqlarini dikkaytirib, go'yo qandaydir ko'rsatma kutayotgandek, ulardan ko'z uzmasdi, bu esa juda g'alati va g'ayrioddiy manzara edi. Bobongiz tishlari orasidan sekingina hushtak chalgan edi, it o'zining doimiy joyiga borib yotdi. Kelgindilardan biri, kattasi bo'lsa kerak, bir qadam oldinga chiqib, na salom bor, na alik, xuddi tomdan tarasha tushganday, amirona ohangda shunday dedi:

– Koshis, bizga aynan sendek odamlar kerak. Bilamiz, sening es-hushing joyida. Bu deparada sening otlaringdan yaxshiroq otni topib bo'lmaydi, – bobojoningizni sal maqtaganday bo'ldi haligi odam, ammo uning buyruq berishga o'rganib qolgani shundoq bilinib turardi.

Hech esimdan chiqmaydi, bobongiz sir boy bermay, mag'rur qiyofada edi, chunki u to'g'ri va halol odam edi, shuning uchun hech qanday himoyaga muhtoj ham emasdi.

– Men sizlarni tanimayman, – dedi bobongiz, biroz jimlikdan so'ng, o'shanda bu sukunat menga nimaga-dir juda uzoq tuyulgan, – shuning uchun sizlar bilan kelisholmaymiz. Kamina oddiy bir dehqon bo'lsam, sizlarning oyoqlaringizdagi yaltiroq etiklar bizga yo'l bo'lsin. Ha, darvoqe, ularni qayerdan olgansizlar? –

kinoya aralash so‘radi bobojoningiz. Shunda, endi uni kaltaklashmasaydi, deb qo‘rqib ketdim va o‘zimcha pichirlab, duoga qo‘l ochdim. Harqalay, hech narsa sodir bo‘lmadi. Yaratganga shukronalar aytdim. Bobongiz esa avvalgidek mag‘rur turardi. Faqat bosqinchilar bir-birlari bilan ko‘z urishtirib olishdi. So‘ng kattasi qisqa buyruq bergach, hammasi indamay daf bo‘lishdi.

Xo‘sh, keyin-chi, keyin nima bo‘ldi deb so‘rarsizlar-a, qizlarim?

Keyin deyarli har hafta qo‘rg‘onimizdan „mehmonlar“ning oyog‘i uzilmay qoldi. Har gal g‘irt notanish odamlar kelar, oyoqlarida boyagiday etik, sochlari kalta olingan bo‘lardi. Har gal kelishganda, bobongizdan „o‘ylab ko‘rdingmi?“ deya so‘rashar, bobongiz esa ularni gap bilan uzib olar: „O‘zlaring ko‘rib turibsizlar, boshqa birovlarining „g‘oya“lari uchun menda ortiqcha joy yo‘q, biz boriga shukur qilib yashaydigan dehqon odammiz, xo‘sh, buning nimasi yomon ekan?“ – deya javob qaytarardi.

Bir kuni kelgindilar bitta ot bilan bir nechta cho‘chqani indamay olib ketishdi, boshqa safar he yo‘q, be yo‘q, omborimizdagi makka, bug‘doy, don-dunni aravaga ortib, jo‘nab qolishdi. Bobongizning talonchilarga hech qanday qarshilik ko‘rsatmay, indamay qo‘yib berganiga Moris bilan Mikloshning jahli chiqdi. Kunlarning birida Moris, o‘shanda u o‘n ikki yoshli bola edi, bosqinchilarning biriga miltiq o‘qtalgan, buni bobongiz ko‘rib qolib, qulog‘ining tagiga tarsaki tushirgan: „Hammamizning hayotimizni xavf ostiga qo‘yadigan sendaqangi qahramondan o‘rgildim“, deya rosa urishgan.



Bobongiz juda serurug' edi. Qarindoshlaridan biri – Layosh amakining azaldan fashistlar bilan aloqasi yaxshi edi, chamamda. U qo'rg'onimizga biror marta ham kelmagan bo'lsa-da, menimcha, „taqir-boshlar“ (kelgindilarni nafrat bilan shunday deb atardik) Layosh tufayli bobojoningizni o'z holiga qo'yib kelayotgan edilar. Bobongizni ham frontga chaqirishgan, u o'shanda olis Rossiyaning qayeridadir jang qilishi kerak edi, ammo Stalingrad ostonasidagi kurashlardan keyin vaziyat kutilmaganda keskin o'zgarib ketgan edi.

1945 yo 1946-yilmidi, hozir aniq esimda yo'q, fashistlar tomoniga o'tib ketgan Layosh va uning sheriklari kommunistlar tomonidan daryo sohilida otib o'ldirildi. Daryo suvi o'shanda qip-qizil tusga kirgan, baliqlar ko'payib, semirib ketgan, bu baliqlarni negadir yeging kelmasdi. Oilamizdagilarga ilgari har juma kuni baliq sho'rva pishirib berardim, hamma uni maqtab-maqtab ichardi. O'sha voqeadan so'ng, ko'p yillar davomida baliq sho'rva qilmay qo'ydim. Qarindosh-urug'lar Layoshning jasadini rosa qidirishgan, biroq topisholmagan.

Stalingraddagi janglardan so'ng, qo'rg'onimizga fashistlar emas, partizanlar tashrif buyura boshladilar. Ularning ham o'z dardlari bor edi. Hamma yoqning tit-pitini chiqarib, fashistlarni qidirishar, ko'proq ichib, haddan ziyod ko'p ovqat yeyishar, ermakka hayvonlarni qiynashardi... Gapiraman desam, gap nihoyatda ko'p, qizlarim. Eng yomoni, har bir yil o'zi bilan yangicha dahshatlarni olib kelardi. Xullas, tinchgina yashashga qo'yishmasdi. Mana, hozir sizlarga



boshimizdan o'tgan voqealarni gapiryapman-u, ularga qanday izoh berishga o'zimning ham aqlim yetmay turibdi.

Buni qaranglarki, biz birdaniga yangi bir davlatda yashay boshladik! Qo'rg'onimiz joyida turibdi, o'zimiz ham hech qayoqqa ko'chib ketganimiz yo'q, ammo endi biz yashayotgan yangi, ozod mamlakat Yugoslaviya Xalq Respublikasi deb atalardi. Go'yo biz ularni o'zimiz chaqirib, taklif qilayotganday, tuzumlar ham birin-ketin almashinib, hayotimizga o'zlari kirib kelardi. Avval monarxiya, so'ng esa fashizm! Mana, endi kunimiz qizillarga qolib, ular boshimizda qamchi o'ynatib turardi. Davlatimiz boshlig'ining ismi qisqagina⁸ ekanini o'shanda bilganmiz (o'zi hayotda uncha kerak bo'lmaydigan narsalarning nomlari ham qisqa bo'ladimi deyman).

1946-yilda mol-mulklarni musodara qilish, boshqacha qilib aytganda, zo'rlik bilan tortib olish boshlandi. Endi qo'rg'onimizga ilgarigidek bizga notanish kimsalar emas, balki o'zimiz taniydigan basharalar kirib kelardi. Bir kuni qo'rg'onimizda Geza degan nusxa o'z odamlari bilan paydo bo'ldi. U yaqin-yaqingacha ham biznikida ishlab yurardi.

– Burjuy Koshis, – dedi u yuz-xotir, andishani yig'ishtirib qo'yib, – Endi sen bizga o'rtoq (tovarish) bo'lmog'ing lozim, zamonlar o'zgardi. Noqonuniy qo'lga kiritgan mol-mulklaring, yerlaringni bizga topshirishing kerak.

– Endi nima qilamiz? – so'radim men Geza va uning hamtovoqlari moldek ichib, kayflari oshib,

⁸ Gap bu yerda Tito haqida bormoqda.

cho‘ntaklarini ham to‘ldirib, yo‘qolib ketishganlaridan so‘ng.

– Hech nima, – dedi bobongiz.

O‘sha kunlari har tunda tushimda otlarimizni ko‘rardim. Ularning har biri menga nimadir demoqchi bo‘layotgandek tuyulaverar va bunday tushlarning oxiri har doim o‘lim bilan tugardi. Ana shunday tushlarning biri aniq esimda qolgan. O‘sha tushimda kimdir meni uyg‘otib qo‘ygan emish. Qarasam, dunyoni suv bosguday bo‘lib, sel yog‘ayotganmish. Uyda yolg‘iz o‘zim, bobongiz ham, bolalar ham yo‘q ekan. Nogoh oshxonamiz derazasidan tashqariga qarabman. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, eng yaxshi otimiz hovlidagi akas daraxtiga mahkam chandib bog‘lab tashlangan, bechora jonivor allaqachon to‘pig‘igacha suv bosgan bo‘lsa-da, joyidan qimir etmasmish. Tushkun bir holatda derazani ochib, hovliga qarab qichqirib, otning kishanlarini uzib, qochib ketishga undabman. Biroq ot turgan joyida qimir etmay, o‘z o‘limini mardonavor kutib turaverganmish. Shunda uni ozod etmoqchi bo‘lib, jonholatda o‘zimni eshikka uribman, aksiga olib eshik ham sira ochilmasmish... Bir mahal qo‘limda kattakon cho‘tka, o‘zim hozirgina qutqarmoqchi bo‘lganim eng yaxshi otimizning... suyak ustuxonlarini yig‘lab-siqtab cho‘tkalagan ko‘yim, shoyad sevimli otimiz tirilib, hayotga qaytsa deb, Yaratganga iltijolar qilib yotganmishman...

Ko‘rgan bu tushlarim haqida bobongizga lom-mim demadim. Faqat kommunistlarning tashriflari kundan kunga ko‘payib, iskovuch itday hamma yoqning tit-pitini chiqarib, nafslari hakkalak otib, haddi-

laridan oshib ketavergach, bobongizdan panaroq joyga yashirinishini soʻradim. Biroq u gaplarimga parvo ham qilmadi.

– Qiziqmisan, – dedi u, – buzoqning yugurgani somonxonagacha, hademay oʻzlari tinchib qolishadi.

Kunlar shu zaylda oʻtib borardi. Oradan bir necha kun oʻtgach, qoʻshni qishloqlik Feri degan bolakay biznikiga yugurib kelib, otasini hibsga olishganini aytdi. Chaqirilmagan mehmonlardan bittasini tishlab olgan itini esa shu zahotiyuq otib tashlashibdi. Feri oʻzini tutolmay, hoʻngrab yigʻlab yubordi. Uni yupa-tib, onang qayerda deb soʻrasam, shaharga – olma, nok sotgani bozorga ketgan, dedi.

Shunda bobongiz narsalarini yigʻishtirdi-da, menga, sen bolalarni olib, shaharga – singlingnikiga bor, oʻsha yerda vaqtincha yashab turinglar, deb tayinladi. Miklosh bilan Morisning boshlarini silab, peshonalaridan oʻpdi. Bolalarning oʻsha lahzadagi qoʻrquv toʻla nigohlari, moʻltirab turgan koʻzlari, maʼyus qiyofalari hamon koʻz oʻngimdan ketmaydi. Bobongiz meni mahkam bagʻriga bosib, Ferini ham oʻzing bilan olib ket, dedi-da, xayrlashib chiqib ketdi.

Shundan keyin bobongiz qishloq atrofidagi mak-kajoʻxorizor va bugʻdoyzorlarda yashirib yurdi. Har oqshom, taxminan soat oʻn bir-oʻn ikkilarda bir tanishinikiga ehtiyot boʻlib borib, yuvinib, ovqatlanib olardi. Bir-birini quvib, kunlar ketidan kunlar, haftalar ketidan haftalar oʻtdi. Kunlarning birida kutilmagan-da shum xabar eshitdik. Kimdir bobongizning izidan tushib, uni poylab yurgan va qochib, yashirib yurganini „tegishli joy“ga yetkazgan. Keyin bil-sak, oʻsha chaqimchi eng yaqin tanishlarimizdan biri



bo'lib chiqdi. O'sha mash'um xabardan ikki kun avval bobojongiz bilan yana to'rt kishini aravada olib ketishgan ekan.

Qishlog'imizda Bori ismli kelishgan, xushro'y bir ayol bo'lardi, keyinroq, eshitishimizcha, u o'sha kuni zo'r tomosha ko'rsatgan. Ayol o'lganning ustiga tepgan qilib, aravadagilarni „Quloqlar! ekspluatatorlar!“ deya qarg'ab, yuz-ko'zlariga chang solib, mo'ylovlarini yulib olgan ekan. 1946-yil bilan 1952-yil o'rtasida o'tgan vaqt tarixda bejiz „mo'ylov yulish davri“ deb nom olmagan.

Bobongizni avval Pozarevachga, so'ng Kostolachdagi ko'mir koniga jo'natishgan. Undan ham avval bobongizni Miklosh o'qiydigan maktab yerto'lasiga olib borib, u yerda kun bo'yi do'pposlab, so'roq qilishgan. Miklosh, albatta, otasining ovozi eshitgan, tasavvur qilyapsizlarmi, chopib borib yerto'laga tushmoqchi ham bo'lgan, ammo o'qituvchisi bunga yo'l qo'ymay, uning hayotini saqlab qolgan. Uni darsdan ozod qilishning ham iloji bo'lmagan, chunki ijrochi malaylar o'quvchilarning hammasi joyidami yo'qmi, kuniga nazorat qilib turishgan. Bechora Miklosh bolaginam o'shanda endigina o'n bir yoshga qadam qo'ygan edi.

Bobongiz ularning partiyasiga a'zo bo'lishdan ham, yerlarimizni topshirishdan ham bosh tortgan. Ijrochilar esa quturib, uni „Katta yer egasi! Fashist! Ablah venger!“ deya haqorat qilib, rosa qiynashgan.

Oradan bir yildan ziyodroq vaqt o'tib, nihoyat bobongiz qaytib kelganida, uni taniyolmaganman. O'shanda bolalar bilan singlimnikida yashardik. Bobojongiz soch-soqollari oppoq oqarib, ozib-to'zib, ayanchli bir ahvolda kirib kelgan. Eh, qizlarim, agar



bobojonigizni yigitlik paytida ko'rganingizda edi, adl va mag'rur, qaddi-qomati kelishgan, qop-qora sochlari quyuc va silliq, o'zi vazmin, bosiq, og'ir, bir ishni qilishdan oldin o'ylab, mulohaza qilib ko'rguvchi edi... Endi-chi? „Sochlaringizga nima bo'ldi, dadajon“, deya so'ragandi o'shanda sizlarning otangiz Miklosh. Bobongiz esa go'yo hech narsa bo'lmaganday:

– Qo'yaver, o'g'lim, nainki men, bitlar ham tek turishgani yo'q, – deya siniq jilmayib qo'yaqolgan edi.

Bir kuni kechasi bobongiz menga lagerda o'z boshidan kechirganlarini birma-bir gapirib bergan, keyin bu haqda boshqa so'z ochmagan. Qachondir undan o'shanda nima yeb tirikchilik qilgansizlar, deb so'ragandim, men senga bu haqda bir marta gapirib berganman, o'sha yetib ortadi, deb javob qilgan.

Shundan so'ng bobongiz, hayotda deyarli ro'shnoqlik ko'rmadi hisob. Bizdan hamma narsamizni tortib olishdi. Endilikda qo'rg'onimizda „o'rtoqlar“ deb nom olgan merosxo'rlar yashashardi, yerlarimiz ham ularning tasarrufida edi. Xumparlar nima deyishdi deng, agar biz xohlasak, o'z yerlarimizning kichik bir qismini qayta sotib olishimiz mumkin ekan, „saxovatpeshalik“ni qaranglar. Otlarimiz ham allaqachon kimoshdi savdosiga qo'yilib, sotilib ketgan, qizil Lashlo cho'chqalarimizning eng ko'pini sotib olgan, xomsemiz, yumaloqqina Yensi esa g'oz va o'rdaklarimizni o'ziniki qilib olib ketgan. Noinsoflar bizga o'zimiz yetishtirgan olma, olcha, o'rik, shaftoliqoqini, hatto omborimizdagi tuzlangan bodringlarni ham ravo ko'rishmagan.



Bobojongiz qaytib kelganda, merosxo'rlarning qo'rg'onimizda yashayotganiga bir oycha bo'lgandi, ungacha qo'rg'onni qandaydir qizil askar qo'riqlab turgan. Uni Miklosh o'z ko'zi bilan ko'rgan, bir kuni u qo'rg'onga bildirmay kirib, hovlimizdagi quduq yonigacha pusib borgan va olma daraxtlari ostida turgan xantal rangli kursichamizni olib qochgan. Buni bobongizga aytib bergandim, u:

– Xudo bir saqlabdi, – dedi, – agar uni o'zimizning kursini o'g'irlyotgan paytida ushlab olishganda nima bo'lardi?..

Shu yerga yetganda buvijonimiz hikoyasini tugatib, ko'zoynagini qo'liga oldi.

– O'sha yili bobojongizni qaro yerga topshirdik, – dedi u namlangan ko'zlarini dastro'molchasi bilan artarkan. – Bobongiz o'shanda ellik bir yoshda edi. Hali uzoq yashashi mumkin edi. Otalarining bevaqt o'limidan so'ng, Miklosh bilan Morisning murosasi qochib, bir-biri bilan tez-tez aytishadigan bo'lib qolishdi. – Buvijon asta o'rnidan turib, javon g'aladonidan qandaydir sarg'ayib ketgan suratni oldi-da, Nomi bilan mening oldimizga qo'yib, – mana, bobojongiz, – dedi. Biz bir suratga, bir buvijonimizga qarab, hayron bo'lib qoldik, chunki fotosuratda o'ttiz chog'li odam tasvirlangan bo'lib, barchasi paltoga o'ralib olgan, boshlarida telpak, shapka, yuzko'zlari jiddiy, mo'ylovli kishilar edi.

– Ha, o'sha surat olingan paytda qirchillama qish, havo nihoyatda sovuq edi, – dedi buvijon o'tgan kunlarni eslab. – Suratdagilarning barchasi shu dep-aralik dehqonlar, bir-birlari bilan o'zaro tajriba alma-



shish uchun to'planishgan. Yanglishmasam, ikkinchi jahon urushi boshlanmasdan bir yo ikki yil oldin edi.

Nomi ikkovimiz suratga uzoq tikilib, undan bo'bojonimizni qidirishga tushdik. „Ha, mana, topdik!“ „Rostdanmi?“ so'radi buvijon. „Albatta!“ Nomi va men buvijonimizga barmoqlarimiz bilan suratdagi is-tarasi issiq bir kishining yuzini ko'rsatdik. U sevimli bobojonimizning chehrasi edi.



VIII bob

MAKTUB VA TUG‘ILGAN KUN

Bundan uch hafta muqaddam onam opasi – Isu xolamdan xat olgan edi. Uning yozishicha, yaqinda nafaqaga chiqqan bo‘lishiga qaramasdan, ahvollari nihoyatda og‘ir ekan. „Soatbay bo‘lsa ham, biron joydan ish topmasam bo‘lmaydi, – deb yozibdi u. Hazilmi, chinmi, ammo oladigan nafaqa puliga atigi bir dona olma kelarkan, xolos. – Xudoga shukurki, olma o‘zimizda yetarli“, debdi xolam xatida. Shu kunlarda pul shunday qadrsizlanibdiki, hatto u ketingni artishgayam yaramas emish (chunki qattiq, dag‘al qog‘ozdan tayyorlangan ekan). Shu pulni olishga ham oxiri ko‘rinmas navbatga turib, kutish kerak bo‘larkan. Hatto ayrim odamlar navbatga turish orqali oz-moz pul ishlash yoki qorin to‘yg‘azish yo‘lini ham o‘ylab topishibdi. Ular barvaqtroq kelib, navbatda turishar-kan-da, so‘ng arzimas pul yoki uch dona tuxum yo bir burda non evaziga o‘z navbatlarini kimgadir berib, agar pul olgan bo‘lsa, undan tezroq qutulish uchun, ya‘ni arzongarov bir nima sotib olish (ishqilib, pulni yo‘qotsa bo‘ldi) uchun yana shoshilishar ekan.

Qorinni-ku, bir amallab yamab tursa bo‘larkan, lekin ko‘mir yo‘q, hatto o‘rmondan o‘tin terish ham taqiqlangan, aksiga olib, havo juda sovuq, yoqilg‘i, yonilg‘i, benzin yo‘q, yerlarga otlar bilan ishlov berishayotgan ekan. Eng yomoni, harbiy safarbarlik kuchaygan, erkaklarni tinmay xizmatga chaqirisha-



yotganmish. Bela bir o'rtog'inikiga yashirinibdi, Saba esa chegara osha Vengriyaga qochibdi. Ko'pgina ayollar kabi Silla ham og'ir qismatga duchor bo'libdi. Piri amaki esa soqchi itday g'ingshib, tishlarini g'ijirlatib o'tirgan emish. „Xo'sh, yana nimalarni yozay, – debdi Isu xolam, – ha, aytgancha, sutning narxi oshdi, endi o'z-o'zidan nonning narxi ham ko'tariladi. Ota-onalar bolalarini maktabga jo'natish uchun avtobusga yo'l haqini to'lolmay sarson, natijada, maktablar huvillab qolyapti. Xullas, endi jinni bo'lishga keldik, shekilli, basharti allaqachon bo'lib ulgurmagani bo'lsak“, – deb o'z maktubini yakunlabdi Isu xolam. Iyul oyida onamning ellik yillik yubileyini nishonladik. Juda ko'p mehmonlar kelishdi. Tabriklar qutlovlarga, raqslar raqslarga ulanib, kuy, qo'shiqlar yangradi, o'yin-kulgi to'alamahalgacha qadar davom etdi. Ayniqsa, onamning to'lqinlanib aytgan gaplari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

– Bolaligimda onam menga o'z qo'llari bilan ko'ylak tikib, sovg'a qilgan edilar, – dedi u. – O'sha ko'ylakning ko'rinishi qanaqa edi, bu haqda hozir batafsil to'xtalib o'tirmayman. Lekin bu ko'ylakni o'n besh yoshga to'lgunimcha kiyib yurganman. Onam ko'ylakni shunday tikkan ekanlarki, torayib, har gal chetini so'kkanlarida, o'sha yerdan gul rasmi chiqib kelavergan... Oxiri ko'ylak menga to'g'ri kelmay qolgach, onam uning materialini yostiqqa jild uchun ishlatganlar. Bir kuni yostiqjildning ichida bir nima borligini payqab qolganman. Ochib qaragam, uning ichidan onajonimning dastxatlari bitilgan qog'ozcha chiqdi, unda: „Sevimli qizim uchun“ degan yozuv bor edi. Men shu yozuvni bugun, ellik yoshga to'lgan



kunimda yana bir bor o‘qib, qalbim quvonchga to‘ldi. Onajonimning o‘zlari ham bugun shu yerdalar, kelinglar, u kishini olqishlab qo‘yaylik, umrlari uzoq bo‘lsin, yuzga kirib yursinlar...

Onam so‘zini tugatishi bilan gulduros qarsaklar yangradi, o‘yin-kulgi davom etdi.



MUNDARIJA

I bob. Titoning yozi.....	3
II bob. Koshis oilasi.....	17
III bob. Chegarachilar va majnuntollar.....	21
IV bob. Ilk ish kunlari.....	31
V bob. Sevgi qissasi.....	35
VI bob. Yurt qayg'usi.....	42
VII bob. Agar daryo bo'lsaydim.....	45
VIII bob. Maktub va tug'ilgan kun.....	60



84(4Shva)

A 17

Melinda Naj Abonji

Kabutarlar baland uchadi [Matn]: Qissa/
M. Akbarov tarjimai – Toshkent. „READ BOOK“
nashriyoti – 2021. – 64 bet.

ISBN 978-9943-7017-5-5

UO‘K 821(485)

KBK 84(4Shva)

Melinda Naj Abonji

KABUTARLAR BALAND

UCHADI

(*Qissa*)

„*READ BOOK*“ nashriyoti
Toshkent – 2021

Muharrir *E'zoza Abdullayeva*
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Nashriyot litsenziyasi № 1557, 21.01.2021.
Bosishga ruxsat etildi 14.10.2021. Bichimi 84×108^{1/32}.

Kegli 12. „Times New Roman“ garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli b. t. 3,36. Hisob-nashriyot t. 2,05.

Adadi 5 000. Birinchi zavod 3000 nusxa.

Buyurtma № 188.

Toshkent shahar, Shayxontohur tumani,
U. Yusupov ko'chasi, 8/24-uy.

G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyoda chop etildi.

100128, Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz info@gglit.uz



ISBN 978-9943-7017-5-5



9 789943 701755